

SIRDARYODA AGROTARMOQNI RIVOJLANTIRISH, HOSILDORLIK VA EKSPORT QUVVATINI OSHIRISH UCHUN KATTA SALOHİYAT MAVJUD

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasidagi ishlarni yangi yondashuvlar asosida tashkil etish bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Sirdaryo viloyati hudud jihatidan kichik bo‘lsa-da, aslida, qishloq xo‘jaligida katta salohiyatga ega. Asosiy maydonlar daryo va kanallar bo‘yida joylashgan, aholisi mehnatkash, barcha infratuzilma qulay.

Yig‘ilishda tumanlardagi manzilli o‘rganishlar tahlil qilinib, yangi taklif va rejalar ko‘rib chiqildi.

Ekinlarni yerlarning tuproq-iqlim xususiyatidan kelib chiqib yetishtirish, cho‘l hududlarda g‘alla, sabzavot va kartoshka hosildorligini oshirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Sug‘orish tarmoqlarini ta‘mirlab, ikki yilda 20 ming gektar yerni qayta foydalanishga kiritish rejalashtirilmogda.

Oziq-ovqat loyihalari uchun ham imkoniyatlar ko‘p. Jumladan, Oqoltin, Guliston va Boyovut tumanlaridagi 9 ming gektarda 3 ta yirik chorvachilik majmuasini ishga tushirish, 7 ming gektarda yangi texnologiya asosida paxta yetishtirish mo‘ljallangan.

Viloyatda 10 ming gektar bog‘ va tokzor bor. Ularning yarmidan ko‘pida nav va agroteknologiya eskiligi uchun meva-sabzavot xaridorgir emas. Shu bois, 2 ming gektar bog‘ni yangilab, xorijda eng xaridorgir mevalar yetishtirish, qolganini talabgorlarga taklif etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, bu yil “O‘ng tarmoq” tumanlararo kanalining 607 kilometrini rekonstruksiya qilish va raqamli boshqaruvga o‘tkazish loyihasi yakunlanadi. Natijada 35-40 foiz suv tejaladi, 27 ming gektarda suv ta‘minoti yaxshilanadi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma‘qullab, qishloq xo‘jaligida hosildorlik va aholi bandligini ta‘minlash, oziq-ovqatga bo‘lgan ichki talabni to‘liq qoplash, qayta ishlash va eksport quvvatlarini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

ZAMON TALABLARIGA MOS ISTIQBOLLI KADRLAR MAMLAKATIMIZ DRAYVER SOHALARINI YUKSALTIRISHDA ASOSIY KO‘MAKCHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash va mutaxassislarning xorijda ta‘lim olishini qo‘llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda har bir sohani rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida e‘tibor qaratilmogda. Yoshlarning o‘qishi, mutaxassislarning tajriba oshirishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmogda.

Shu maqsadda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2 ming 225 nafar stipendiatlar 45 ga yaqin davlatga o‘qishga yuborilib, byudjetdan jami 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Hozirgacha ularning 1 ming 400 nafari O‘zbekistonga qaytib, iqtisodiyot tarmoqlarida, ta‘lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlamogda. Bugungi kunda 748 nafar stipendiatlar “TOP-300” talikdagi nufuzli universitetlarda ta‘lim olyapti.

Endi bunday ishlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida mazkur fondni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib, Davlat boshqaruvi akademiyasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi etib qayta tashkil etish ko‘zda tutilmogda. Ular Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birga kadrlar tayyorlash klasteriga aylantiriladi.

Jumladan, istiqbolli mutaxassislarni xorijda tayyorlash bo‘yicha bakalavriat, magistratura va doktorantura bilan bir qatorda davlat xizmatchilari olti oygacha maqsadli stajirovkaga yuboriladi. Bunda energetika, urbanizatsiya, transport, arxitektura, geodeziya, yer munosabatlari, texnika, muhandislik kabi iqtisodiyotning drayver sohalariga, davlat boshqaruvi va dolzarb ijtimoiy yo‘nalishlarga ustuvorlik beriladi.

Xalqaro reytinglarda “TOP-100” talik universitetlarga grant asosida o‘qishga kirgan nomzodlarga “El-yurt umidi” stipendiyasi imtihonlarsiz ajratiladi. “TOP-300” talikda bo‘lgan universitetlarga grantga kirganlarga xalqaro transport va turar joy xarajatlari imtihonlarsiz qoplab beriladi. “TOP-20” talikdagi universitetlar bakalavriatiga 50 foiz grant asosida qabul qilingan Prezident maktablari bitiruvchilariga stipendiyalar tanlovlarsiz ajratiladi.

Xorijda o‘qiyotgan yurtdoshlarimiz bilan doimiy mulogotda bo‘lish, ularning ehtiyojlarini aniqlash hamda ta‘lim-tarbiya jarayonlarida yordamlashish maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi

stipendiatlarining ota-onalari kengashi tuziladi. Elchixona va konsulliklarga talabalarga huquqiy va tashkiliy ko‘mak ko‘rsatish vazifalari yuklatiladi.

Zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashda Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining ham o‘rni katta. U yerda “Hokimlar maktabi”, “Rahbar ayollar maktabi”, “Kelajak liderlari” kabi kurslarda ilg‘or ta‘lim dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan o‘quv yilida 13 mingdan ziyod tinglovchilarning malakasi oshirilgan.

Yangi tizimga asosan, endi davlat xizmatchilari uchun 3 ta dastur – malaka oshirish, qayta tayyorlash va magistratura yo‘lga qo‘yiladi. Barcha uzoq va o‘rta muddatli o‘quvlar xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma ta‘lim dasturlari hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tayanch tavsiyalari asosida tashkil etiladi.

Magistratura “Davlat boshqaruvi”, “Davlat siyosati”, “Hududlarni kompleks rivojlantirish”, “Inson resurslarini rivojlantirish” va “Davlat moliyasini boshqarish” yo‘nalishlarida 18 oygacha muddatda chuqurlashtirilgan bilimlar

beriladi. Davlat buyurtmasidan tashqari to‘lov-kontrakt shaklida ham talabgorlar qabul qilinadi.

Akademiyada ta‘lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish, nufuzli xorijiy ilmiy-ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatish uchun Xalqaro akademik maslahat kengashi tuziladi.

Shuningdek, akademiya huzurida 4 ta yangi markaz tashkil etilmogda. Misol uchun, Davlat boshqaruvi muammolarini ilmiy-amaliy tadqiq etish markazi davlat xizmati samaradorligini oshirish, xususi sektoridagi ilg‘or amaliyotlarni davlat boshqaruvida joriy qilishga qaratilgan tavsiyalar berib boradi.

Prezidentimiz taklifi ma‘qullab, bu tizimlarni yangicha yondashuvlar asosida joriy qilish, jamg‘arma va akademiya xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Iqtidorli yoshlarni doimiy izlab topish va yuqori darajada o‘qitish, malakali mutaxassislarni islohotlarga jalb qilish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR YUZASIDAN JAVOBGARLIKNI KUCHAYTIRISH BO‘YICHA QONUNCHILIKKA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Qaror bilan kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularni fosh etish samaradorligini oshirish bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va qator tashkiliy-texnik choralarni ko‘rish belgilandi.

Jumladan, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida yagona ishlash amaliyotini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutuvchi alohida qonun loyihasini ishlab chiqish hamda yuridik shaxslar tomonidan kiberxavfsizlik talablariga rioya etmananlik uchun, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasidagi barcha jinoyatlar yuzasidan javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish topshirildi.

Banklar, to‘lov tizimi operatorlari, to‘lov tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmananlik natijasida yo‘l qo‘yilgan kiberjinoyat oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibini joriy etish belgilandi.

Shu bilan birga, bundan keyin kiberjinoyatni sodir etishda o‘z nomidagi bank kartasidan, bank hisobraqami, elektron hamyonidan va boshqa shaxsiga doir ma‘lumotlaridan (SIM kartasi, elektron akkaunt) foydalanishga yo‘l qo‘ygan shaxslar uchun ma‘muriy va jinoyi javobgarlik choralari o‘rnatiladi.

Kiberjinoyatlarning oldini olish yo‘nalishida axborot tizimidagi zaifliklar va kamchiliklar natijasida kiberjinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ygan banklar va to‘lov tashkilotlari ro‘yxatini ommaga e‘lon qilish hamda aholi pul mablag‘larini jalb qilishga qaratilgan onlayn firibgarlik sxemalari (“moliyaviy piramida”)ni barvaqt aniqlash amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, qaror bilan shaxslarning bank kartalaridagi pullarning talon-toraj qilinishini to‘xtatish maqsadida banklar, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlariga zamonaviy antitirof va antivirus himoya tizimlarini joriy etish hamda firibgarlar tomonidan soxta raqamlar orqali fuqarolarga qo‘ng‘iroq qilishlarini texnik (imkonsiz qilish) cheklash kabi choralar belgilandi.

Joriy yildan boshlab, har yili bir oy davomida “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” kompleks targ‘ibot oyligini o‘tkazish hamda tashviqot ishlarini sohaga oid barcha davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan faol tarzda olib borish orqali aholining raqamli imuniteti va ogohlilgini oshirishning doimiy tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Qarorga muvofiq kiberjinoyatlarni fosh etish yo‘nalishida Markaziy bank, to‘lov tizimi va ichki ishlar organlarivakillaridan iborat

tezkor harakatlanish guruhi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi va mazkur guruh tomonidan shubhali pul o‘tkazma amaliyotlariga aloqador bank kartalarini tezkorlik bilan aniqlash va bloklash kabi choralar ko‘rib boriladi.

Buning natijasida, kiberjinoyat orqali jinoyatchilar tomonidan o‘zlashtirilgan pullarni respublika hududidan chiqib ketishining oldini olish va jabrlanuvchiga qaytarish imkoniyati ta‘minlanadi.

Shular qatorida, qaror bilan kiberjinoyatlarni tergov qilish va fosh etish faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ushbu jarayonda qonunchilik ijrosi ustidan prokurorlik nazorati hamda ilmiy tadqiqot faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda sohadagi xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha choralar belgilandi.

Mazkur qarorda ko‘rsatilgan vazifalarning amalga oshirilishi mas‘ul davlat organlari, tashkilotlar, banklar, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlarining fuqarolarning kiberjinoyatlardan jabrlanib qolishining oldini olish hamda ularning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha mas‘uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

bilan hamkorlikda innovasion dasturiy mahsulotlar va startap loyihalarini ishlab chiqish yo‘lga qo‘yiladi.

Eng muhimi, qarorda aholiga elektron davlat xizmatlarini proaktiv va kompozit shaklda taqdim etish orqali qo‘shimcha qulayliklar yaratish bo‘yicha bir qator topshiriqlar belgilandi.

Qarorda ko‘rsatilgan vazifalarning amalga oshirilishi ichki ishlar organlarining samaradorligini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashda zamonaviy yechimlardan foydalanish, fuqarolarga davlat xizmatlarini qulay va tezkor ko‘rsatish hamda axborot xavfsizligini ta‘minlashda muhim qadam bo‘ladi.

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

YUQORI JANGOVAR RUH VA QAT‘IY INTIZOM – QUDRATLI ARMIYA POYDEVORI

Bugungi milliy armiyamiz tom ma‘noda Vatan sha‘ni, xalq tinchligi va jonajon xalqimizning ertangi kuniga bo‘lgan ishonch ramziga aylanib bormogda. Armiya saflarida xizmat qilish yoshlarimiz uchun nafaqat muqaddas burch, balki yuksak shon-sharaf, iftixor, xalq ishonchiga sazovor bo‘lishdek ulug‘vor maqomga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy o‘zbek armiyasi saflari milliy qadriyatlarimizni o‘z faoliyatiga chuqur singdira olgan, xalq xizmatiga vijdonan bel bog‘lagan, Vatan tinchligini o‘z hayotidan ustun qo‘yuvchi dovyurak o‘g‘lonlar bilan boyimogda.

Qonun, ijro va natijadorlik

Yangi O‘zbekiston armiyasini yangicha kuch va sifat bilan rivojlantirishda Prezidentimizning tegishli qaror va farmoyishlari muhim omil bo‘lmogda. Zero, undagi talablar shaxsiy

javobgarlik va mas‘uliyatni kuchaytirish, tashkiliy hamda nazorat faoliyatining shakl va uslublarini takomillashtirishni taqozo etadi. Mudofaa vazirligida ijro intizomini ta‘minlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, 2024-yil davomida “Ijro.gov.uz”

elektron tizimi orqali 19 ta qonun, Prezidentning 149 ta farmoni, 272 ta qarori, 41 ta farmoyishi va 31 ta bayoni doirasida vazirlikka yuklatilgan jami 1435 ta topshiriqdan 1321 tasi o‘z muddatida to‘liq ijro etildi. Bu boradagi kompleks chora-tadbirlar jarayonida ijro intizomining qat‘iyligi, shaxsiy mas‘uliyat va tashabbuskorlik asosiy tamoyil etib belgilangan. Yuqori va quyi tizimlar o‘rtasida tezkor ichki axborot almashinuvi jarayoni to‘liq elektron formatga o‘tkazilgani sohaga doir qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilishda o‘z natijasini bermoqda.

Davomi 3-beta



XORAZM MARVARIDI

HAR BIR LOYIHA, ISLOHOT ODAMLARNING TURMUSHINI YANADA YAXSHILASH, ULARNI ROZI QILISHGA QARATILGAN

Prezidentimizning 1-2-may kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida qator dolzarb vazifalar belgilandi. Tashrif kun tartibi juda boy bo‘ldi. Dastur doirasidan sanoat, qishloq xo‘jaligi va turizm sohasidagi yangi obyektlar bilan tanishuv, transport infratuzilmasi va shaharsozlik sohasida yirik loyihalar ishga tushirilishi o‘rin oldi. Xorazmlik yurtdoshlarimizning mazkur tashrif ahamiyati haqidagi fikrlari bilan qiziqdik.

Maysara XUDOYBERGANOVA,
Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi deputati:

— Xorazm jahonga dong‘i ketgan ne-ne olim-u fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar yurti. Prezidentimiz o‘tgan yili viloyatimizga tashrifi chog‘ida bergan topshiriqlari ijrosi o‘laroq, bugun viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tubdan yaxshilandi, qator ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar qurilib foydalanishga topshirildi.

Davomi 2-beta



2025-yil 6-may, 91-son

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON



O‘zbekiston
tashabbuslari — amalda

ONA TABIATNI KO‘Z QORACHIG‘IDEK
ASRASHDA DASTURULAMAL HUJJAT

Dunyo miqyosidagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiiy muvozanatni saqlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzi mustahkamlanib borayotganidan dalolat.

O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining “Barqaror o‘rmon xo‘jaligi asosida o‘rmonzorlashtirish va o‘rmon tiklash bo‘yicha harakatlar dekadası” nomli rezolyutsiyani qabul qilgani fikrimiz tasdiq‘idir.

Bugungi globallashuv, yuqori rivojlanish jarayonida O‘zbekiston tashabbusi nihoyatda muhim va hayotiy xalqaro zarurat, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, birinchidan, Prezidentimizning asosiy tashabbusi, jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Markaziy Osiyo yashil belbog‘” daraxt ekish aksiyasi asosida ishlab chiqilgan ushbu hujjatda 2027-2036-yillar “O‘rmonzorlashtirish va o‘rmon tiklash harakatlar dekadası” deb e‘lon qilingan.

Ushbu davrda kuch va resurslarni mobilizatsiya qilish, shuningdek, davlatlar va tashkilotlarni tegishli chora-tadbirlarni kuchaytirish tavsiya

yetkazib berish yo‘lida jahon xalqlarini birgalikda, hamkorlikda harakat qilishga undaydi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bir odam bir kecha-kunduzda 5-6 litr kislorod qabul qiladi. Bu ehtiyojni qondirish uchun 22 ta daraxt kerak. Har bir daraxt yiliga 120 kilogramm kislorod ajratib bergani holda, ayni shu vaqtda deyarli 22 kilogramm, butun hayoti mobaynida bir tonna atrofida karbonat angidrid yutadi. Shu bois, o‘rmonlari yashil maskanlarni yerning o‘pkasi deyish o‘rinli.

Daraxtlar shovqin yutishi, qushlar-u hayvonlar, tirik jonzotlarga in va ozuqa manbai bo‘lishi, eroziyaning oldini olishi, chang-g‘uborni yutishi bilan ham juda qadrlı. Qolaversa, odamlarning turmush tarzida, ya‘ni uy-joyidan tortib, kundalik maishiy jihozlarigacha, hatto sog‘lom va to‘kin yashashda ham ularning ahamiyati beqiyos.

Shu bois, “Yashil makon” umummilliy loyihasini ekologik vaziyatni yanada yaxshilash hamda iqlim o‘zgarishlarining oldini olish uchun



etilgan. 80 dan ortiq davlat mazkur rezolyutsiya hammaulifi ekani va ular dunyoning barcha mintaqasini qamrab olgani ham O‘zbekiston tashabbusining ahamiyatidan dalolat beradi.

Qolaversa, biz juda ko‘p ekologik muammolar yuz berayotgan tahlikali dunyoda yashayapmiz. Ozon qatlami yemirilishi, chuchuk suv tanqisligi, yerning yashil qoplamı kamayishi, issiqxona gazi chiqindisi ko‘payishi va yer meliorativ holatining o‘zgarishi, tabiiy resurslar kamayishi kabi umumbashariy muammolar yil sayin kuchaymoqda.

Eng achinarlisi, bioxilma-xillik yo‘qolib ketishi, o‘simlik va jonivorlar qirilibdir. Bepoyon o‘rmonlar kesilishi, suv va havo ifloslanishi natijasida ekotizim muvozanati buzilmoqda. Bularning barchasi insonlarning tabiatga salbiy ta‘sirı oqibatida yuzaga kelmoqda. O‘z navbatida, tabiat ham o‘ziga yetkazilgan zararnı javobsız qoldirayotgani yo‘q. Atmosferaga zararli gaz ta‘sirı, biosfera o‘zgarishi, yerdagi harorat oshib borishi, dengiz sathi ko‘tarilishi bilan turli tabiiy ofatlar ham ko‘paymoqda.

Shu ma‘noda, mazkur rezolyutsiya dunyo aholini yana bir bor ogohlikka da‘vat etib, ona tabiatni bag‘ridagi yashil xazinalari bilan saqlab qolish va keyingi avlodlarga musaffo, sof holatida

milliy yechim sifatida baholash mumkin. Ushbu loyiha zamirida turli rusumdagi mashinalar, logistika va texnika vositalari qurshovida qolgan makonga asl tabiatni tuhfa etish, ko‘chat ekish va bog‘ barpo etish istagi yotibdi. Bugun loyiha doirasida hududlarni ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida shaharlar bosh rejaralarini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda “yashil maydon”lar aholi soniga mutanosib bo‘lishini ta‘minlash belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, qonunchilik hujjatlarida shahar va qishloq aholi punktlarida ko‘kalamzorlashtiriladigan hududlar maydonini tashkil etish bo‘yicha majburiyatlar belgilangan.

Qisqasi, mazkur rezolyutsiya mamlakatlarni birlashib, hamjihat harakat qilishga chorlaydigan dasturulamal hujjatdir. Rezolyutsiya doirasida ona tabiat, ayniqsa, uning o‘pkasi bo‘lgan o‘rmonlarni ko‘z qorachig‘idek asrash bo‘yicha samarali va yangicha yondashuvlar ishlab chiqilishiga aminmiz.

Malika QODIRXONOVA,
senator



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



XORAZM MARVARIDI

HAR BIR LOYIHA, ISLOHOT ODAMLARNING TURMUSHINI YANADA YAXSHILASH, ULARNI ROZI QILISHGA QARATILGAN

Boshlanishi 1-betda

Bizni xursand qilgan eng muhim voqealıklardan biri — Xorazm xaritasida yana bir marvarid paydo bo‘ldi. Bu “Arda Xiva” majmuasidir. Zero, Prezidentimiz alohida ta‘kidlaganidek, “...“Arda Xiva” Xorazmdagi turizm rivojida yangi sahifa ochadi, viloyatning ikkinchi “tashrif qog‘ozı”ga aylanadi”.

Ushbu xalqaro turistik maskanda 17 ta mehmonxona va mehmon uyi, 9 ta restoran, ochiq va yopiq akvaparklar, 3 ming o‘rinli amfiteatr, 5 ta kino va konsert zali, ko‘rgazmalar pavilyoni, 70 ta do‘kon, 300 ta savdo rastasi, 11 ta hunarmandlar uyi, Sharq bozori va zargarlik markazi, favvoralar, sohilbo‘yi yo‘lagi mavjud. Eng muhimi, bunday ishlar hisobidan viloyatga sayyohlar oqimi qo‘shimcha 1 millionga oshadi, xizmatlar 1,2 trillion so‘mga ko‘payadi, kamida 2 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Xiva haqiqiy sharqona ertak muhiti bilan o‘ralgan shahar. Dunyoning turli burchaklaridan millionlab sayyohlar bu yerga kelishi bejiz emas. Xivaga bormagan kishi haqiqiy O‘zbekiston ruhini his qilmagan hisoblanadi. Aytgancha, Xiva faqatgina noyob me‘moriy yodgorliklari bilan mashhur Ichanqal‘adan iborat emas.

Urganchdan Xiva tomon atigi 4 kilometr masofada qurilgan “Arda Xiva” turistik majmuasi ko‘rinishi Xivaning o‘zini eslatadi, faqat kichraytirilgan shaklda. Mahalliy aholi uni allaqachon Xivaning yo‘ldosh shahri deb atay boshlagan.

Majmuaning o‘ziga xos “Arda Xiva”, ya‘ni “port shahri” deb tarjima qilinadigan nomi uning joylashgan o‘rnidan kelib chiqqan. Bir vaqtlar bu yerda, Xiva yaqinida Amudaryo o‘zani o‘tgan, hatto bu o‘zan Kaspiy dengiziga quyilgan, degan ma‘lumotlar ham bor.

Bugungi kunda Amudaryodan bu yerda bir necha yirik ko‘l qolgan. Ulardan biri

150 gektar maydonni egallagan. Mahalliy tarixchilarning ta‘kidlashicha, G‘ovik ko‘li qadimgi hunarmandlar maskani bo‘lgan, aynan shu yerdan Ichanqal‘a yodgorliklarini qurish uchun loy olib kelingan. Buyuk ipak yo‘lining o‘ziga xos jozibasini qayta tiklash maqsadida G‘ovik ko‘li yaqinida, sayyohlik shaharchasi hududida suv rekreatsion zonalari va yirik savdo maydonchalari barpo etilgan.



Yana bir yangilik — endi Xiva tumanidan 2 ming 400 gektar yer Xiva shahriga o‘tkazilib, u joyda “Sahro yulduzi” turistik majmuasi bunyod etiladi. Bir qator tumanlarimizda turizm qishloqlari tashkil etiladigan bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, viloyatimiz turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Hamidjon BOBOYEV,
Urganch shahridagi Kasbiy ko‘nikmalar mintaqaviy markazi rahbari:

— Davlatimiz rahbari Urganch shahrida barpo etilgan Kasbiy ko‘nikmalar mintaqaviy markazimizda bo‘lib, shart-

sharoitlar bilan tanishdi. E‘tiborli jihatı, ushbu loyiha xorazmlik yoshlar, umuman, hudud aholisi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish va, albatta, kasb-hunar o‘rgatishga xizmat qiladi.

Shu paytgacha bunday maskanlar soni mamlakatimizda to‘rtta edi. Mana, endi viloyatimizda ham bunday maskan faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Majmua Koreya xalqaro hamkorlik agentligi —

KOICAning 9 million dollarlik grant mablag‘i hisobiga qurilgan. Zamonaviy kasblar uchun zarur jihozlar, simulyatsion uskunalar o‘rnatilgan.

Bu yerda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, payvandchilik, yuk ko‘tarish mashinistligi, elektron va maishiy texnika ta‘miri, mebelsozlik, sartaroshlik va kosmetologiya, mobilografiya hamda mehmonxona xizmati kabi talab yuqori bo‘lgan 10 ta mutaxassislik o‘rgatiladi. Buning uchun qariyb 2 gektar hududda zamonaviy o‘quv binolari, amaliy mashg‘ulot xonalari, 64 o‘rinli yotoqxona va boshqa yordamchi inshootlar qurilgan. Muassasa yiliga 300 tinglovchini 6 oylik kasbiy tayyorgarlik kurslarida o‘qitish imkoniyatiga ega.

“Urganch aeroportini Incheon aeroporti bilan sheriklikda dunyo darajasiga olib chiqamiz. Katta turizm markazlari, mehmonxonalar quryapmiz. Endi xorijiy sayyohlar ko‘p kelishi uchun xizmat ham xalqaro darajada bo‘lishi kerak. Ular tariximiz, tabiatimiz uchun keladi, servis yaxshi bo‘lsa, xursand bo‘lib ketadi. Bunda ko‘p narsa xizmat ko‘rsatuvchilarning muomalasi, etikasi, saviyasiga bog‘liq. Shuning uchun bu imkoniyatdan foydalanib, kasbni yaxshi o‘rganing. Kelgusida o‘zingiz ham tadbirkor bo‘lishga harakat qiling”, dedi Prezidentimiz.

Markazimizda Migratsiya agentligi hamda Janubiy Koreyaning “Hyundai” va

Davlatimiz rahbari malakali kasbiy tayyorgarlikni sanoatlashtirish, umuman, davlat rivojining asosi ekanini ta‘kidladi. Amaliyot uskunalaridan samarali foydalanish, darslarni oqilona tashkil etib, ko‘proq yoshlarni o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Murod DAVLATOV,
Shovot tumani hokimi:

— Xorazm viloyati ham so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan hududlardan biriga aylanib bormoqda. To‘qimachilik, agrosanoat, sanoat, turizm va infratuzilma sohalaridagi yirik loyihalar hudud iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Urganch xalqaro aeroporti yaqinidagi Al-Xorazmiy shaharchasi qurilishi bilan ham tanishdi. Shaharcha 130 gektardan ziyod hududda bunyod etilmoqda.

Bu yerda texnopark va ofislar, tibbiyot va madaniyat markazlari, xiyobonlar, maktab va bog‘chalar, sport majmualari, savdo va maishiy binolar bo‘ladi. Shaharcha markazida ulug‘ bobomiz Al-Xorazmiyning muazzam haykali o‘rnatiladi.

Prezidentimiz viloyat faollari bilan uchrashib, iqtisodiyotning barcha sohalari, jumladan, qishloq xo‘jaligi, turizmni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. Umuman, bu yil jami 200 million dollarlik 91 ta loyihani bajarish, turizm va xizmatlar sohasida 100 mingta ish o‘rni ochish vazifasi qo‘yildi. 2 million xorijiy va 10 million mahalliy sayyoh jalb qilib, turizm eksportini 700 million dollardan oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Iqtisodiyot sohasida ham imkoniyat ko‘p. Bu yil Xorazmda kamida 6 foiz iqtisodiy o‘sishni ta‘minlab, yalpi hududiy mahsulotni 60 trillion so‘mdan oshirish ko‘zda tutilgan. 265 ming aholini band qilib, 104 ming odamni kambag‘allikdan olib chiqish mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbari Xorazmni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha qator topshiriqlar berdi. Shundan kelib chiqqan holda, Shovot tumanida ham bu yil kompleks rivojlantirish dasturi bo‘yicha 70 milliard so‘m ajratiladigan bo‘ldi. Zarbdor tajribasi va drayver loyihalar bo‘yicha 15 milliard so‘m, investitsiya hamda boshqa sohalarni rivojlantirish uchun 31 milliard so‘m yo‘naltirildi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Lutfulla SUVONOV
tayyorladi.

MUAMMOLARNING ENG TO‘G‘RI YECHIMI

Zarafshon shahridagi Istiqol mahallasida yashovchi Baxtiyor Islomov bir necha yildan buyon og‘ir dard bilan kurashib keldi. Murakkab jarrohlik amaliyoti — yagona umid. Biroq zarur mablag‘ yo‘qligi tufayli ushbu ilinj ham so‘ngan edi. Mahalla mutasaddilari ko‘magi bilan masalalar xabarlari bo‘liban Zarafshon shahridagi Xalq qabulxonasi mas‘ulori bu qolatni e‘tibordan chetda qoldirmadi. Zarur ko‘mak berildi va jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazilib, yurtdoshimizning hayoti saqlab qolindi.



Ijtimoiy himoya

Baxtiyor Islomov bundan mamnun. Qolaversa, Xalq qabulxonasi mas‘ullari va mahalla faollari uning holidan xabar olish uchun xonadoniga kelganida ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi. Inson qadri ulug‘langan shunday yurtda yashayotgani uchun shukronalar aytdi.

— Sog‘lig‘imdagi muammolar tufayli biror joyda ishlash olmadim. Bir necha yil davolanishga majbur bo‘ldim, — deydi Baxtiyor Islomov. — Oxirgi yillarda moliyaviy jihatdan juda qiyonlab qoldik. Yaqinlarim imkoni boricha yordam qildi, ammo murakkab jarrohlik amaliyoti xorijda qilinishi va buning uchun katta mablag‘ talab

etilar edi. Hayotdan umidimni uzib, tushkun ahvolda qolgan edim. Zarafshon shahri Xalq qabulxonasi ko‘magi bilan jarrohlik amaliyoti viloyatning o‘zida muvaffaqiyatli o‘tkazildi va ortiqcha mablag‘a zarurat qolmadi. To‘g‘risi, muammo ijobiy hal etilishiga ishonmagan edim. Shunday xalqparvar tizim yo‘lga qo‘yilgani uchun davlatimizdan juda minnatdorman.

Yurtimizda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari,

munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash masalalari yangi bosqichga ko‘tarilyapti. Bu jarayonda Prezident Xalq qabulxonaları faoliyatı muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hududlarda samarali faoliyat yuritayotgan bu tizim murojaatlarning ijrobı hal etilishida fuqarolarga yaqin ko‘makchi bo‘lmoqda.

Zarafshon shahri Navoiy viloyati markazidan olis hududda joylashgan bo‘lsa-da, aholi murojaatlari doim

e‘tiborda. Zarafshon shahri Xalq qabulxonasi tomonidan hududdagi 15 ta mahallada hokim yordamchilari, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda aholi muammolari xonadonbay o‘rganilib, ijobiy yechimi bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda. Bundan tashqari, yuzaga kelayotgan masalalar sohalar bo‘yicha tahlil qilinib, kelib chiqish sabablari o‘rganilmoqda. Ularning oldini olish bo‘yicha tashkilotlar



bilan hamkorlikda kerakli chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi ta‘minlanmoqda. Ijtimoiy xodimlar yordamida ehtiyojmand oilalar va ko‘makka muhtoj fuqarolar aniqlanib, manzilli ko‘mak berilmoqda.

— Joriy yil o‘tgan davrida aholidan turli masala bo‘yicha 500 ga yaqin murojaat kelib tushdi, — deydi Zarafshon shahri Xalq qabulxonasi mudiri Habib Xalilov. — O‘tgan yilning shu davriga taqqoslaganda murojaatlar 26 foiz kamaygan. Bu esa shahar hokimi va o‘rinbosarlari, tashkilotlar rahbarlari tomonidan o‘tkazilayotgan sayyor qabullar va ularda ko‘tarilgan masalalar yechimiga alohida e‘tibor ko‘rsatilyotgani samarasidir. Ushbu jarayonlarda ham qabulxonamiz mas‘ullari bevosita ishtirok etib, muammolarni hal etishda tegishli tashkilotlar mutasaddilari bilan hamkorlikda ishlamoqda. Bundan tashqari, “Yettila imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyili asosida kambag‘al oilalar bilan alohida muloqot o‘tkazilib, har biri bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Har bir masala murojaatchilar va hududiy mas‘ullar bilan birga ochiq muhokama qilinib, qonuniy va adolatli hal qilinishi, ayniqsa, bu jarayonda ijtimoiy himoyaga muhtoj ko‘plab insonlar davolanishi, salomatligini tiklashi, bandlik bilan bog‘liq muammolari hal bo‘lishi umidsiz ko‘ngillarga ishonch, hayotdan mamnunlik, davlatdan rozilik tuyg‘ularini baxsh etayotir.

Hududdagi Yangi Zarafshon mahallasida yashovchi 77 yoshli Oydin Javbasarova

hayotning ko‘p sinovini boshdan o‘tkazgan. 30 yoshida turmush o‘rtog‘idan ayrilib, 3 qizini yolg‘iz o‘zi voyaga yetkazdi. Qizlari uyli-joyli bo‘ldi. Ammo onaxon o‘zini yolg‘iz his etmaydi. Yaqinda Oydin ayaning xonadoni ta‘mirlab berildi. Zamonaviy maishiy jihozlar sovg‘a qilindi. Mahalladan ijtimoiy xodim birkirtilib, zarur ko‘mak berilmoqda.

— Mahalla mutasaddilari holimdan xabar olib, endi siz yolg‘iz emassiz, har kuni ijtimoiy xodim ko‘maklashadi, deganida ham hayron, ham xursand bo‘ldim, — deydi Oydin Javbasarova. — Sababi, yolg‘iz insonlarga qarab turish uchun mahalladan xodim ajratilishini avval ko‘rmaganman. Qizlarim ham tez-tez xabar olib turadi. Ijtimoiy xodim barcha yumushimda yordam bermoqda. Uyim ta‘mirlanib, yetarlicha sharoit bilan ta‘minlandi. E‘tibordan chetda emasligimdan juda ham mamnunman.

Bugun Zarafshon shahri Xalq qabulxonasi tomonidan ana shunday xayri ishlar bajarilmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida 122 kishining bandligi ta‘minlanib, 12 fuqaroga moddiy yordam berildi. Shuningdek, barcha yo‘nalishdagi murojaatlar nazoratga olinib, aksariyati ijobiy hal etildi. Muhimi, bu kabi amaliy ishlar xalqning davlatdan rozi bo‘lib, ertangi kunga ishonchi ortishiga xizmat qilmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak” tamoyiliga asosan, 2024-yilda fuqarolarni qabul qilish va muammoli masalalarini hal etish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rish bo‘yicha yuzlab shaxsiy va sayyor qabullar o‘tkazildi.

YUQORI JANGOVAR RUH VA QAT’IY INTIZOM — QUDRATLI ARMIYA POYDEVORI

Shuxrat XALMUXAMEDOV,
O‘zbekiston Respublikasi
mudofaa vaziri,
general-mayor

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yil davomida Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy xizmatni o‘tash, harbiy kadrlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish va kadrlar faoliyatini tartibga solish, shuningdek, ushbu sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan turli darajadagi 33 ta normativ-huquqiy va boshqaruv hujjati ishlab chiqildi.

Ulardan Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatni o‘tash masalalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan hamda Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi farmoni bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Qurolli Kuchlar harbiy nizomlari harbiy xizmatchilarning kundalik jangovar-xizmat faoliyatini tashkil etish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, malakali harbiy kadrlarni tanlash va ularning faoliyatini samarali boshqarish bo‘yicha ochiq va shaffof tizim joriy etildi. Bunda elektron platformalardan foydalanish orqali kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularidan samarali foydalanish tartibi yanada takomillashtirildi. Natijada qo‘shinlarda kadrlarni tanlash va lavozimlarga tayinlash jarayoni shaffofligi ta‘minlanib, harbiy sohaga yangi avlodning bilimli va mas‘uliyatli mutaxassislarini jalb qilish imkoniyati yaratildi.

Harbiy san’atdagi yangi davr va tendensiyalar

Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyati, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma‘naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarbdir. Bizning oldimizda Qurolli Kuchlarimizning yangi, modernizatsiya qilingan o‘t ochish tizimlari va texnika bilan ta‘minlashni harbiy harakatlar teatri xususiyatlari, qo‘shinlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda davom ettirish vazifasi bor.

O‘tgan o‘quv yili davomida qo‘shinlar tayyorgarligini yanada yaxshilash va zamon talablariga moslashtirish maqsadida 15 ga yaqin boshqaruv hujjati yangi tahrirda ishlab chiqildi va qo‘shinlarga yuborildi. Hujjatlar qo‘shinlar orasida o‘zaro hamjihatlik, samaradorlik va yuksak mas‘uliyatni ta‘minlash bilan birga, jangovar tayyorgarlikni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida barcha toifadagi komandir va boshliqlarning asosiy diqqat-e’tibori amaliy dala-o‘quv mashqlariga, mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilishda kuch tuzilmalari bilan uzviy hamkorlikka qaratildi.

Kichik komandirlarning boshqaruvchanlik mahorati oshdi, strategik, operativ va taktik bo‘g‘inlarda bo‘linmalar tomonidan yangi taktik harakatlar o‘zlashtirildi. Jangovar tayyorgarlik jarayonida shaxsiy tarkibining psixologik tayyorgarligi hamda jangovar ruhini oshirish dasturi ishlab chiqildi.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining taktik, operativ vazifalarini bajarish qobiliyati qo‘qqisdan sinovdan o‘tkazildi. Bunda qo‘shinlarni qayta guruhlash, desantlashtirish, havo-desant qo‘shinlarini qo‘llash, temir yo‘l va havo transportida tashish, uzoq masofalarga marshlar uyushtirish, razvedka olib borish, jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlarini qo‘llagan holda aviatsiya, artilleriya, tank va boshqa qurollardan jangovar otilishlarni o‘tkazish tadbirlari amaliy tarzda bajarildi. Tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, jangovar shaylik tadbirlari o‘tgan yildagiga nisbatan 1,5 marta ko‘payib, qo‘mondonlik tarkibining kasbiy tayyorgarligi oshishiga erishildi. Mudofaa vazirligi qo‘shinlari vazifalarini bajarishga shay deb baholandi.

Bugungi kunda harbiy mojaroalar barcha makonlarni — quruqlikda, havoda, suvda va suv

ostida, kosmik makonda, axborot va kibermakonda olib borilmoqda. Natijada o‘tmishda siyosiy maqsadlarga faqat qurolli kurash orqali erishilgan bo‘lsa, bugungi kunda buni qurolli to‘qnashuvsiz amalga oshirish mumkin.

Ayni davrda dunyo hamjamiyati harbiy to‘qnashuvlarni samarali hal qilish formulasini topishga intilmoqda. Shu ma‘noda, dunyoda sodir bo‘layotgan harbiy mojaroalarning kelib chiqishi va ularning oqibatlari, xususan, **sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar, robotlashtirilgan qurol va majmualarning qo‘llanilishi**, axborot-psixologik xurujlarning yangi ko‘rinishlarini tahlil qilgan holda qo‘shinlar va tegishli muassasalarda hozirgi zamon harbiy mojaroalarida harbiy san’at rivojlanishidagi yangi tendensiyalarga yagona qarash va yondashuvlarni yaratish masalalari o‘rganilmoqda.

Professional serjantlar — qo‘shinlarning tayanch ustunlari

Prezidentimizning 2024-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta‘minlash hamda oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, jamoaviy jipslikni ta‘minlash, serjantlar korpusi faoliyatini rivojlantirish maqsadida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida alohida maqomga ega bo‘lgan “bosh serjant” va “bosh serjant yordamchisi” lavozimlari tatbiq etildi.

Ushbu lavozimdagi harbiy xizmatchilar uchun “birinchi serjant”, “shtab serjant”, “master serjant” va “serjant-mayor” harbiy unvonlari joriy etildi. Mazkur lavozimlarga tayinlash uchun 300 dan ortiq nomzod serjantlar orasidan saralandi hamda bugungi kunda vatanparvarlik,

“**Milliy qo‘shin tuzish orzusida o‘tgan ota-bobolarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida ishchi guruhlar tomonidan arxivlarda saqlanayotgan mingdan ortiq ish jildi o‘rganilib, ular asosida qatag‘on qurboni bo‘lgan jami 1105 nafar, jumladan, otuvga hukm qilingan 157 nafar, uzoq muddatga qamalgan 535 nafar, quloq qilingan 109 nafar, mol-mulki musodara qilingan 193 nafar, 1953-yildan keyingi davrda oqlangan 111 nafar o‘zbekistonlik shaxsning ro‘yxati shakllantirildi.**

milliy an‘ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan, intellektual salohiyat va yuksak harbiy mahorat, boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bosh serjant va bosh serjant yordamchilari tomonidan batalyon, brigada, okrug va vazirlik miqyosida bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kuchli raqobat muhitida rivojlanayotgan qo‘shinlar

Qo‘shinlarda “Men g‘olib!” shiori ostida yakka va guruh tarkibida kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar bilan 23 ta yo‘nalishdagi mutaxassislik bo‘yicha ko‘rik-tanlovlar hamda askarlar bilan 25 ta yo‘nalish bo‘yicha musobaqalar, shuningdek, Qurolli Kuchlar miqyosida “O‘z kasbining ustasi” unvoni, “Eng ilg‘or mergan”, “Dovyrak jangchi”, “To‘maris” hamda “Amir Temur jangovar bayrog‘i uchun” musobaga va ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilmoqda.

Sog‘lom raqobat muhitida o‘tayotgan ushbu tadbirlar orqali mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda guruhlarning jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini baholashga erishdik.

Keng ko‘lamli islohotlar natijasida 2024-yil davomida Mudofaa vazirligi mutaxassislari turli xalqaro harbiy musobaqalarda faxrli o‘rinlarni egalladi. Xususan:

— Pokistonda VII Xalqaro “**Jamoa ruhi**” musobaqasida — 1-o‘rin;

— Turkiyada “**Eng ilg‘or mergan**” musobaqasida — 1-o‘rin;

— Harbiy-kasbiy tayyorgarlik xalqaro Olimpiadasi — 1-o‘rin;

— Janubiy Koreyada “**Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik**” musobaqasida — 1-o‘rin;

— MDHga a‘zo davlatlar armiyalari o‘rtasida “**O‘g‘ otish sporti**” musobaqasida — 1-o‘rin;

— Rossiyada “**Sayan yurishi**” musobaqasida — 2-o‘rin;

— Janubiy Koreyada birinchi xalqaro merganlar musobaqasida — 2-o‘rin;

— Buyuk Britaniyada “**Kembriya patruli**” musobaqasida — 2-o‘rin;

— MDHga a‘zo davlatlar armiyalari o‘rtasida “**Harbiy sport kompleksi ko‘pkurashi**” musobaqasida — 2-o‘rin.

Mudofaa vazirligining 22 sportchisi mamlakatimiz sport terma jamoalari tarkibida Parij shahrida o‘tkazilgan yozgi Olimpiya o‘yinlarida 9 ta sport turi bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etdi. Olimpiya o‘yinlari yakuniga ko‘ra, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan 2 ta oltin, 1 ta kumush medal qo‘lga kiritildi. Paralimpiya o‘yinlarida ham Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari 1 ta oltin va 1 ta kumush medal sohibi bo‘ldi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar bilan aholi o‘rtasida “**Xalq va armiya — bir tan-u bir jon!**” shiori ostida sportning ommaviy, texnik va amaliy turlari bo‘yicha musobaqlar hamda barcha harbiy xizmatchilarni keng qamrab olgan harbiy sport o‘yinlari o‘tkazilmoqda.

Poligonlardagi yangi o‘quv nuqtalari va amaliyot

Bugungi kunda qo‘shinlar shaxsiy tarkibining zamonaviy jangovar harakatlarda qo‘llanilayotgan yangi taktik usul va uslublarni amalda o‘zlashtirishi uchun Mudofaa vazirligi

“**Milliy qo‘shin tuzish orzusida o‘tgan ota-bobolarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida ishchi guruhlar tomonidan arxivlarda saqlanayotgan mingdan ortiq ish jildi o‘rganilib, ular asosida qatag‘on qurboni bo‘lgan jami 1105 nafar, jumladan, otuvga hukm qilingan 157 nafar, uzoq muddatga qamalgan 535 nafar, quloq qilingan 109 nafar, mol-mulki musodara qilingan 193 nafar, 1953-yildan keyingi davrda oqlangan 111 nafar o‘zbekistonlik shaxsning ro‘yxati shakllantirildi.**

tasarrufidagi 14 ta poligon Qurolli Kuchlarning yagona dala tayyorgarligi markaziga aylantirildi hamda bo‘linmalar tayyorgarligi uchun xalqaro talablarga mos ravishda barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ularning barchasida UUA va dronlarni boshqarish bo‘yicha o‘quv nuqtalari tashkil qilindi. “Forish”, “Maydon”, “Baxmal”, “Pachkamar”, “Shorsu” va “Tolmozor” poligonlari xalqaro talablarga mos ravishda zamonaviy ko‘rinishda barpo etildi.

Dala-o‘quv maydonlari tank ekipajlarini majmuaviy tayyorlash, guruh qurollaridan o‘q otish bo‘yicha 23 to‘plamdan iborat panoramali kompyuterlashtirilgan nishonlarni harakatga keltiruvchi moslamalar va o‘q otish kabi o‘quv trenajyorlari bilan ta‘minlandi.

2024-yilda Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari Radiolokatsiya stansiyalari mutaxassislarini o‘qitish va qayta tayyorlash markazining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, o‘quv markazlari soni 20 ga yetkazildi. O‘tgan yil davomida ular da Mudofaa, Ichki ishlar hamda Favqulodda vaziyatlar vazirlilari, DXX, Milliy gvardiyadan 37 ta jangovar mutaxassislik bo‘yicha jami 111 mingdan ortiq harbiy xizmatchi malaka oshirdi.

Ilg‘or tajriba tahlili va xalqaro hamkorlik

Jangovar harakatlarni olib borishning zamonaviy yondashuvlari, usul va uslublarini tahliliy o‘rganish maqsadida xalqaro harbiy hamkorlik rejasiga binoan, Mudofaa vazirligi

harbiy xizmatchilari turli darajadagi xalqaro simpozium va konferensiyalarda, taktik, operativ va strategik o‘quvlarda ishtirok etdi.

Xalqaro harbiy hamkorlik rejalarini doirasida 2024-yil davomida qo‘shinlarda mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy armiyalar bilan hamkorlikda 30 dan ortiq tadbir o‘tkazildi. Turkiya, AQSH, Pokiston, Hindiston, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ozarbayjon, Italiya Qurolli Kuchlarining maxsus bo‘linmalari vakillari, merganlari, yo‘riqchi-serjantlari va boshqa tor doiradagi mutaxassislari ishtirokida o‘tkazilgan o‘quv trening mashqlari, kurs mashg‘ulotlari va taktik o‘quvlar harbiy xizmatchilarning



kasbiy malakasini oshirish va tajriba almashish imkonini berdi. Shaxsiy tarkibni zamonaviy jangovar harakatlarga tayyorlash, jangni olib borish va boshqarish bo‘yicha qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarga erishildi.

Hozirgi zamon qurolli to‘qnashuvlarining tahlili va rivojlangan xorijiy armiyalar ilg‘or tajribasidan kelib chiqib, qator boshqaruv hujjatlarini, xususan, bo‘linmalarning yangi taktik usul va uslublarida jang olib borishga yo‘naltirilgan jangovar algoritim, pulemyotchi kursi, otilishning taktik va texnik elementlarini o‘rganish kursi, nishonlanish bo‘yicha qo‘llanma, shahar va tog‘ sharoitida jang qilish qo‘llanmalari, quuruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomlari hamda barcha qo‘shin turlari bo‘linmalari uchun o‘quv dasturlari yangi tahrirda ishlab chiqildi va qo‘shinlar faoliyatiga tatbiq etildi.

Sun’iy intellekt, robot, raketa, dron...

Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta‘lim muassasalarida intellektual jihatdan yetuk, strategik fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashga urg‘u berilmoqda.

Harbiy san’at shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi kunda harbiy kadrlarning jismoniy tayyorgarligi va g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, IT va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay oladigan, tekzor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega ofitserlarni tayyorlash borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turli tahdid va xavflarni hamkorlikda bartaraf etish maqsadida kuch tuzilmalari bilan birgalikda kursant va tinglovchilar o‘rtasida 9 marotaba ikki pog‘onali qo‘shma qo‘mondonlik o‘quvi hamda 2 marta strategik harbiy ish o‘yini o‘tkazildi.

Qurolli Kuchlar akademiyasida real sharoitlarga moslashtirilgan operativ-taktik vazifalar hamda kursant va tinglovchilarning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida zamonaviy dasturlar ishlab chiqildi. “Xavfsizlik asoslari. Xavf va tahdidlar. Milliy manfaatlar”, “Sun’iy intellekt va uning harbiy sohada qo‘llanilishi” kabi fakultativ kurslar yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarda sun’iy intellekt, robot, raketa, dron va ularga qarshi kurash vositalari keng qo‘llanilmoqda. Globallashtiruv va gibrid urushlar kechayotgan janglarda axborot texnologiyalari, dronlar va

ularga qarshi kurashish sir-asorlarini chuqur o‘rganish maqsadida xorijlik hamkorlar bilan barpo etilgan kibernetika, dasturlash laboratoriyalarida maxsus o‘quv kurslari dasturlari bo‘yicha jiddiy ishlar olib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlari — matonat va fidoyilik maktabi

Hozirgi kunda jahan axborot makonida keskin kurash ketayotgan bir paytda axborot xavfsizligini ta‘minlash, yoshlarning ma‘naviyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini mustahkamlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

2024-yilda shu yo‘nalishda qabul qilingan bir qator hujjatlar asosida qo‘shinlarda ma‘naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Dunyoda ro‘y berayotgan qurolli mojaroalarda aynan “ruhiy resurs” jang taqdirini hal qilmoqda. Shu bois, “Chirchiq” poligonida “**Askarlarni ruhiy chinig‘tirish yo‘lagi**”, “Nukus” va “Farg‘ona” poligonlarida “**Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shaharchasi**” barpo etildi. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bilan birgalikda “**Harbiy xizmatchi ma‘naviyati**” modeli hamda “**G‘oyaviy jangchi**” konsepsiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga kiritildi. Istiqbolda

nishonlanadi. Davlatimiz rahbarining “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi farmoni Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.

Prezidentimizning “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi qarori asosida yurtimizda davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, yoshlar, shu jumladan, harbiy xizmatchilar hamda “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a‘zolari ishtirokida “**Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi**” shiori ostida mardlik va jasoratning ahamiyatini tang‘ib qilishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Qutlug‘ sana munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga pul mukofotlari, “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” esdalik yubiley medali, tabriknoma va sovg‘alar topshirilmoqda.

Biz el-yurt tinchligi uchun kurashgan ota-bobolarimiz hamda yurtdoshlarimizning beqiyos jasorati, temir irodasi va fidoyiligini har doim xotiramizda saqlaymiz. Shu aziz xotira oldida bosh egamiz, fidoyi qahramonlarning muborak nomlari hamisha yuragimizda yashaydi.

Ijtimoiy muhofaza

Harbiy xizmatchilar va oila a‘zolarining ijtimoiy muhofazasi borasidagi davlat dasturlari ijrosi yuzasidan ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yilda 9 ta xizmat uyi hamda ipoteka krediti asosida 29 ta ko‘p qavatli uy qurilib, 1,5 mingga yaqin harbiy xizmatchi uy-joy bilan ta‘minlandi. Harbiy xizmatchilarning 839 nafar farzandi imtiyozli tizim asosida eng nufuzli oliygohlarga o‘qishga qabul qilindi.

Yil davomida harbiy xizmatchilar, ularning oila a‘zolari va soha faxriylarining ijtimoiy himoyasi e‘tiborimizda qatnashib bormoqda. Xususan, harbiy xizmatchilarning 850 nafar rafiqasi va 315 nafar harbiy pensioner ish bilan ta‘minlandi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi:

— 2025-yil 1-martdan harbiy xizmatchilarga turar joyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun to‘lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdori 20 foiz oshirildi;

— 2025-yil 1-iyundan qonunchilik hujjatlariga muvofiq, tasdiqlanadigan ipoteka kreditlarini ajratish ko‘rsatkichlari asosida uy-joy bilan ta‘minlanadigan, kalendar hisobida 10 yildan ortiq harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilarga turar joy sotib olish (qurish) uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori uy-joy hisoblangan qiymatining 35 foizi miqdorida belgilandi.

O‘zbekiston Prezidentining 2005-yil 30-iyundagi tegishli qaroriga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, 2025-yil 1-martdan yil yakuniga qaratilgan Qurolli Kuchlarning kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan, amaldagi sarf-xarajatlar doirasida turar joy bilan ta‘minlanmagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarga turar joyni ijaraga olish uchun:

— Toshkent shahrida — BHMning 4,8 baravarigacha miqdorda;

— Nukus shahri va viloyatlar markazlarida — BHMning 3,6 baravarigacha miqdorda;

— boshqa shaharlar, tuman markazlari va aholi punktlarida — BHMning 2,4 baravarigacha miqdorda har oylik pul kompensatsiyasi to‘lovlari belgilandi.

Oila a‘zolari 3 kishi va undan ortiq bo‘lgan taqdirda harbiy xizmatchilarning ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari 50 foiz oshirildi.

2026-yildan har yili har oylik pul kompensatsiyasi to‘lovlari miqdori hududlar kesimida turar joy ijarasining bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hukumat qarori bilan belgilab boriladi.

“**Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak**” tamoyiliga asosan, 2024-yilda fuqarolarni qabul qilish va muammoli masalalarini hal etish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rish bo‘yicha yuzlab shaxsiy va sayyor qabullar o‘tkazildi. Mazkur qabullarda ko‘plab fuqarolarning muammolari o‘rganilib chiqildi va hal qilish bo‘yicha manzilli choralarni ko‘rildi.

Ko‘rsatilayotgan bunday e‘tibor va g‘amxo‘rlik uchun harbiylar, ularning oilalari va faxriylarimiz tomonidan Prezidentimizga alohida minnatdoriy bildirilmoqda.

Qo‘shinlarimizning haqiqiy kuch-qudrati zamonaviy texnika yoki qurol-aslahada emas, avvalo, yuragida Vatanga sadoqat va fidokorlik hissi jo‘sh urib turgan yoshlar, oddiy askar, serjant va ofitserlarimizning mustahkam irodasi, aql-zakovatida namoyan bo‘ladi. Biz buni chuqur his etgan holda ezuu va sharafli maqsad — ona Vatanimiz xavfsizligi, xalqimiz osoyishtaligi yo‘lidagi barcha topshiriqlarni vijdonan va yuksak mas‘uliyat bilan bajarishga, xalqimiz va Prezidentimiz ishonchini oqlashga va‘da beramiz!

Beqiyos jasorat qablarda mangu...

Dunyo ahlini qayg‘uga solib, insoniyat tarixiga qara dog‘ bo‘lib tushgan Ikkinchi jahon urushi, afuski, O‘zbekistonn ham chetlab o‘tmadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alaba sanasi Xotira va qadrlash kuni sifatida keng

HAM TEJAMKORLIK, HAM DAROMAD

FERMERLAR DAVLATGA ELEKTR ENERGIYASI SOTYAPTI

Keyingi yillarda yurtdoshlarimiz orasida quyosh panellaridan foydalanish ancha ommalashdi. O‘zimiz ham xonadoniga shunday qurilmani o‘rnatgan odamni ko‘rsak, darrov afzalliklari, narx-navosi haqida qiziqib surishtiramiz. Tabiiyki, fikrlar, xulosalar xilma-xil.

Foydalanuvchilar orasida quyosh panelidan hali daromad ko‘rmagani, baribir asosiy tarmoqdan elektr energiyasi sarflab, to‘lov qilayotganini aytayotganlar ham yo‘q emas. Ammo tartibini o‘rganib, qurilmadan to‘g‘ri foydalanayotganlarning aksariyati quyosh panellari xonadon egalarining elektr energiyasiga bo‘lgan talabini to‘liq qoplab, xarajatlarini sezilarli kamaytirayotganini ta’kidlayapti.

Ko‘pchilik hatto iste‘moldan ortgan elektr energiyasini davlatga sotib, qo‘shimcha daromad qilmoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, joriy yilning 1-choragida 12 746 nafar jismoniy shaxs elektr tarmoqlariga o‘tkazilgan quyosh energiyasi uchun davlat byudjetidan 8 milliard 147 million so‘m subsidiya olgan. Subsidiyaning eng katta qismi Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelyapti.

Ya‘ni xonadoniga quyosh paneli o‘rnatgan oilalar iste‘moldan ortgan elektr energiyasini davlatga sotib, to‘lovlarini tegishli tartibda qabul qilib olmoqda. Ushbu amaliyot Prezidentimiz qarori bilan 2023-yil 1-apreldan amal qilayotgan “Quyoshli xonadon” dasturi doirasida belgilangan. U aholi xonadonlariga kichik quvvatli quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, qator imtiyozlarni ham nazarda tutadi. Jumladan, jismoniy shaxslar quyosh panellarini 3 yil muddatga foizsiz, bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olishi, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlardan foydalanishi mumkin.

Olti barobar ko‘p daromad

Nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar uchun ham qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga evarizga qator imtiyozlar mavjud. Shu jihat mahalliy iqtisodiyot tarmoqlari, tadbirkorlik



subyektlari, korxonalarni qiziqitirayotgani rost. Ammo muqobil energiya manbalaridan foydalanishning boshqa zaruratlari ham bor. Ya‘ni elektr energiyasiga talab ortishi, bozor talablariga mos ravishda narx-navo tobora ko‘tarilayotgani, qolaversa, ekologik murakkab vaziyat sabab atrof-muhit uchun zararsiz va barqaror manbalardan foydalanish zarurati bugun odamlarning o‘zida quyosh panellariga qiziqishni oshirayapti. Ayniqsa, resurslar va sarf-xarajatlarni tejash jihatidan iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari, xususan, qishloq xo‘jaligida ham quyosh panellaridan keng foydalanish ommalashib bormoqda.

Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi “Nirt Fruit” fermer xo‘jaligining bu boradagi tajribasi hududdagi dastlabkilardan bo‘ldi. Xo‘jalik rahbari Nuriddin Aliqulov quyosh paneli o‘rnatish ortidan xarajatlarini tejab, qo‘shimcha daromad topayotgani sabablimi, ko‘pchilik uni namuna qilib ko‘rsatmoqda. Fermer dastlab 2024-yil iyun oyida 300 kilovattli quyosh paneli o‘rnatdi. Undan oladigan elektr tokining bir qismini xo‘jalik ehtiyojlariga sarflab, qolganini umumiy tarmoqqa uzatishni boshladi. Shuning ortidan bugungi kungacha 22 million so‘mdan ortiq daromad ko‘rdi.

Fermer xo‘jaligi 2017-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, saqlash va sovitishdir. Xo‘jalik yer maydonlarida o‘nga yaqin turdagi mevalar, yong‘oq yetishtirilib, umumiy sig‘imi 2,5 ming tonnali sovitkich omborda saqlanadi. Yil davomida o‘rtacha 15 ming tonna mahsulot

“**Fermerning umumiy tarmoqqa sotayotgan elektr energiyasi to‘lovlari bank orqali hisob raqamiga tushirilmogda. Shu kungacha olgan daromadidan mamnun. Ayni paytda xo‘jalikda 3300 kilovattli quvvat ishlab turibdi. Endi Nuriddin Aliqulov yana 5 ming kilovattli quyosh paneli o‘rnatishni rejalashtirgan...**

saqlanib, xorijga eksport qilinadi. Demak, bu yerda elektr energiyasiga talab, asosan, sovitish omboridagi qurilmalarning doimiy ishlab turishi uchun sarflanadi.

— Aynan shunday sovitkichlarning ishlashi uchun juda katta miqdordagi, ya‘ni kunlik 1200 kilovatt elektr energiyasi zarur va buning uchun oyiga 100 million so‘m xarajat qilishimizga to‘g‘ri keladi, — deydi “Nirt Fruit” fermer xo‘jaligi rahbari Nuriddin Aliqulov. — Bu xarajatlarni kamaytirishning eng maqbul yechimi muqobil energiya manbalaridan foydalanish, degan xulosaga keldik. Dastlab o‘rnatilgan 300 kilovattli quyosh paneli kutilgan natijani berdi. Elektr energiyasini iqtisod qilish barobarida daromad ko‘rganimizga qiziqib, xo‘jalikdagi 4 gektar yerga yana 3 ming kilovattli quyosh paneli o‘rnatishga kirishdik. Qurilma uchun xarajatning bir qismini o‘zimiz qoplagan bo‘lsak, bir qismi uchun bankdan kredit oldik. Joriy yilning 13-apreldan boshlab 3 ming kilovattli quyosh paneli elektr energiyasi ishlab chiqara boshladi. Bu quvvatning 30 foizi

ehtiyojimizni qoplash uchun yetarli, qolganini esa davlatga sotaypmiz.

Ana endi kichik hisob-kitob qilib ko‘rsak. Fermer 300 kilovattli quyosh panelidan olayotgan elektr energiyasining bir qismini sotish ortidan o‘rtacha to‘qqiz oyda 22 million so‘mdan ortiq daromad qilgan bo‘lsa, hozirgi 3 ming kilovattli quvvatning 1800 kilovattini sotishdan avvalgidan salkam olti barobar ko‘p foyda ko‘radi. Bu xo‘jalik yerlarida yetishtirilib, eksport qilinayotgan mahsulotlar daromadidan tashqari foyda. Quyosh panellari uchun qilingan xarajatlarni ham uzog‘i 3 yilda qoplash hisob-kitob qilingan. Axir bu qurilmalar arzon emas, fermerga salkam 12 milliard so‘mga tushgan.

Bu bilan birovning cho‘ntagidagi pulni hisoblash niyatidan yiroqimiz. Shunchaki quyosh panelini o‘rnatish ortidan olinishi mumkin bo‘lgan daromadni bir misol orqali

tahlil qilmoqchimiz. Buning boshqa foydali tomoni ham bor. Ya‘ni fermer iste‘moldan ortgan muqobil energiya manbaini umumiy tarmoqqa sotishi ortidan hududdagi aholi xonadonlari va iqtisodiyot tarmoqlarining ham uzluksiz elektr energiyasiga talabi qondiriladi. Ayni paytda fermer xo‘jaligi, asosan, kunduz kuni tarmoqqa elektr energiyasi uzatayapti. Yaqinda 1,5 megavattli energiya saqlovchi batareyalar o‘rnatish hisobiga quyosh nuri bo‘lmagan vaqtlarda ham tarmoqqa uzluksiz tok yetkazib berish orqali talabning 10-12 foizini qoplash maqsad qilingan. Boisi, ayni shu tig‘iz vaqtlarda aholining elektr tokiga talabi karrasiga ortgan bo‘ladi.

Fermerning umumiy tarmoqqa sotayotgan elektr energiyasi to‘lovlari bank orqali hisob raqamiga tushirilmogda. Shu kungacha olgan daromadidan mamnun. Ayni paytda xo‘jalikda 3300 kilovattli quvvat ishlab turibdi. Endi Nuriddin Aliqulov yana 5 ming kilovattli quyosh paneli o‘rnatishni rejalashtirgan...

Xorazm tajribasi yaratiladi

Shular haqida Nuriddin akaning o‘zidan eshitgan boshqa fermerlar ham qiziqib, birin-ketin quyosh paneli o‘rnata boshladi. Oltiariq tumanidagi “Sardor-Sarvar” fermer xo‘jaligi rahbari Vohidjon Azimov ulardan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



biri. Boshlanishiga 100 kilovattli quyosh paneli o‘rnatgan fermer keyinroq yana 50 kilovattli quvvatni ishga tushirdi. Buning ortidan nafaqat o‘z ehtiyojlarini ta‘minlayapti, balki iste‘moldan ortiqcha elektr energiyasini davlatga sotib, ozmi-ko‘pmi daromad topa boshladi.

— O‘tgan yili Oltiariq tumanida viloyat hokimi ishtirokida quyosh panellarini o‘rnatish bo‘yicha seminar bo‘lib o‘tdi, — deydi Vohidjon Azimov. — Unda ko‘plab kompaniyalar qatnashib, o‘z takliflarini berdi, mutaxassislar qurilmaning afzalliklari haqida gapirdi. Ammo “Boshidan o‘tkazgan — tabib”, degan naql bor. Bu masalada bizdan 3-4 oy oldin quyosh paneli o‘rnatgan shogirdimiz Nuriddin Aliqulov bilan gaplashganimda, o‘zidagi tajribani aytib berdi. Shundan so‘ng quyosh paneli o‘rnatishga qiziqishim ortib, dekabr oyida 100 kilovattli quvvatni ishga tushirdik. Xo‘jaligimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilib, 500 tonnali muzlatkichda saqlanadi. Har kungi hisob-kitobni yuritganimizda mavjud muzlatkichlarning ishlashi uchun 100 kilovattli quvvat yetayotgani ko‘rindi. Shu bois, keyinroq o‘rnatilgan 50 kilovattli quyosh panellaridan olinayotgan elektr energiyasini umumiy tarmoqqa uzatib, davlatga sota boshladik. Bugungi kungacha iste‘moldan ortgan 13 ming 200 kilovatt elektr energiyasini tarmoqqa uzatib, daromad oldik.

Quyosh panellari o‘rnatgan aholi nafaqat o‘zi, balki mamlakat iqtisodiyotining ham barqaror o‘shishiga munosib hissa qo‘shadi. Yurtimizda ekologiya uchun zararsiz bo‘lgan muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘lami ortadi, tabiiy resurslar tejaldi. Shu bois, davlat bu borada fuqarolarni rag‘batlantirayapti. Bu O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yo‘lidagi katta harakatlarning bir qismi. Vaholanki, bundan 8 yil oldin “yashil” energetika haqida tasavvurga ham ega emasdik. Yirik quyosh va shamol panellarining yurtimizda qurilishi faqat xayoldek gap edi. Ammo hozir bu yo‘nalishdagi yangi va yirik loyihalar haqida gapiryapmiz. Ularning hisobiga 2024-yilda “yashil” energiya ulushi 16 foizdan oshiriladi. Ya‘ni ekologik toza energiya quvvatlari yiliga 2-3 karra ko‘paytirilayapti.

Bunda aholining ham hisssasi oshib bormogda. Odamlar elektr energiyasiga ehtiyojini qayta tiklanadigan, arzon, ekologik toza manbalar evaziga qoplashga o‘rganyapti. Bu ham iqtisodiy tejamkorlikning bir ko‘rinishi. Xorazmlik fermerlar ham tannarxni tushirish uchun izlanib, yangilik qilmoqda. Masalan, xonqalik fermer nasosni elektr bilan ta‘minlash uchun o‘tgan yili 200 kilovattli quyosh paneli o‘rnatib, yillik 120 million so‘m elektr xarajatini iqtisod qildi, qo‘shimcha 53 million so‘mlik elektrni tarmoqqa soddi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-2-may kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida Urganch tumanida Xorazm viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda shu haqida gap bordi. Viloyatda ekin maydoniga suv chiqarish oson emas, respublikadagi nasoslarning 21 foizi shu yerda joylashgan. Ularga quyosh paneli o‘rnatib, elektr xarajatini iqtisod qilish muhimligi ta‘kidlandi. Barcha 2 ming 138 ta nasosni shu tizimga o‘tkazib, Xorazm tajribasini yaratish zarurligi ko‘rsatildi. Demak, bu borada ham hududlar tajribasi paydo bo‘ladi. Turli yo‘nalishlarda muqobil energiya manbalaridan foydalanish hisobiga samaradorlikka erishayotgan bunday tajribalar boshqa hududlarda ham ommalashtiriladi. Bu, o‘z navbatida, tejamkorlik va iqtisodiy samaradorlikka xizmat qiladi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugunning gapi

Ilgari tomorqa deganda yilda bir jo‘xori sepib olinadigan yoki yillab bedazor bo‘lib “dam olib” yotgan chog‘roq ekin maydonini tushunar edik. Aholi, asosan, rizqini kolxoz yoki sovxoz dalalaridan terar, yaxshi meva ham, sabzavot, poliz ekinlari ham o‘sha yerlarda bo‘lardi. Mabodo tomorqa egasi biror mahsulot yetishtirishga bel bog‘lasa ham unga, avvalo, yer haydash uchun texnika yetishmas va o‘sha kolxoz texnikasiga murojaat etishga majbur bo‘lar edi.



TOMORQA – YANGI UMIDLAR MAYDONI

oilalar farovon hayot kechirmogda. Bir paytlar tomorqalarda asosiy ekin beda bo‘lib qolgan bo‘lsa, endi mehnat qilaman degan odamga sarxil meva-sabzavotlar yetishtirib, daromad olish, eksport qilish imkoniy mavjud, — deydi O‘zbekiston Qahramoni Avaz Hosilov. — Aholiga yengillik yaratish maqsadida har bir mahallaga bir nechtadan minitraktor, motokultivator berilgan. Tomorqada yetishtirilgan mahsulotni sotib olish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida tumanlarda eksportga ko‘maklashuvchi korxonalar ochilgan. Kooperatsiya asosida saqlash, saralash va qayta ishlash majmualari tashkil etilgan. Bularning barchasi aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash barobarida yangi ish o‘rinlari yaratishga ham xizmat qilmoqda.

Samarqand viloyatidagi 899 ta mahalladagi 631 ming xonadon ixtiyorida 69 ming gektar tomorqa mavjud. Bugun samarqandliklar uchun tomorqa shunchaki egalik qilib olingan

maydon emas, daromad va farovonlik manbaiga aylangan. Buni amalda isbotlab ulguranganlar ham talaygina. Viloyatda tomorqasi bor xonadonlarning qariyb

60 foizi undan yiliga uch marta hosil olishni uddalayapti. Shu asnoda hududda 2024-yilda 2,4 million tonna mahsulot yetishtirilgan. Tomorqachilarning “boshini biriktiruvchi” loyiha — “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida mahallalarni yuqori daromadli oziq-ovqat ekinlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qilinayotgan amaliyot ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Shu maqsadda viloyatdagi 750 ta mahalla bir turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirilmoqda. Misol uchun, Bulung‘ur tumanidagi 33 ta mahallada sarimsoqpiyoz va pomidor, Jomboydagi 23 ta mahallada sarimsoqpiyoz va bulg‘or qalampiri, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 41 ta mahallada qulupnaya va malina, Oqdaryodagi 20 ta

mahallada gul, Nuroboddagi 21 ta mahallada parranda, Samarqanddagi 46, Tayloqdagi 30 ta mahallada ko‘kat, Paxtachidagi 35 ta mahallada sabzavot ko‘chatlari, pomidor, bulg‘or qalampiri yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan.

Tomorqa ekinlarini yetishtirishda urug‘lik, mineral og‘it va zarur texnika bilan birga sug‘orish tizimi sozligi ham muhim o‘rin tutadi. Viloyatda tomorqa yer egalariiga sug‘orish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2020-2024-yillarda suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan 138 ta mahallada 317 ta artezian quduq qazib berilgan. Natijada esa 22 mingga yaqin xonadonning 2,3 ming gektar yer maydonida suv ta‘minoti yaxshilangan.

Joriy yilda ham hududlardagi sug‘orish sharoiti og‘ir bo‘lgan 93 ta mahallada artezian quduq qazish, ariqlarni betonlash va suv tarmoqlari tortish uchun 189 milliard so‘m ajratilmoqda.

— Yigirma sotix tomorqamga yiliga uch martagacha ekin ekaman, — deydi Hakim Rasulov. — 2010-yildan tomorqamda gulkaram yetishtirishni boshladim. Tajribamdan ko‘rdimki, bu ekin mahallamiz iqlim sharoitiga to‘la mos keladi va yaxshi hosil beradi. “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida mahalladoshlaringa ham shu ekinni ekish, mahsulot yetishtirish, daromad olish yo‘llarini o‘rgatib, ko‘chat tayyorlab beryapman. Hozir mahallamizning o‘zida 60-70 dan ortiq oila gulkaram yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi va mehnati ortidan yaxshigina daromad topaypti.

Yurtimizda yetishtiriladigan kartoshkaning 25-30 foizi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Hozir Bulung‘ur, Jomboy, Tayloq, Samarqand va Urgut tumanlaridagi 173 ta mahalla kartoshkachilikka ixtisoslashgan. Joriy yil bahorda asosiy ekin sifatida 39 ming gektar (shundan 21 ming gektari fermer xo‘jaliklarida,

18 ming gektari aholi tomorqalarida) maydonda kartoshka ekildi. Ushbu maydonlardan 1 million 100 ming tonna kartoshka olish kilmogda.

— Mustaqillik yillarida mamlakatimizda kartoshka yetishtirish 3-4 barobar oshganiga qaramay, iste‘mol ko‘payib boryapti. Kartoshka narxi o‘shishining oldini olinishning biridan bir yo‘li fermer xo‘jaliklarida va tomorqalarda kartoshka ekiladigan maydonlarni kengaytirish, qolaversa, hosildorlikni ko‘tarishdan iborat. Agar xo‘jaliklar o‘z oilasi talab darajasida eksi, bozorda sotmaganida ham kartoshkaga sarf etiladigan xarajatlarni tejab qoladi. Tibbiy tomondan belgilangan talabga ko‘ra, bir kishi ovqatlanishi uchun zarur bo‘lgan kartoshkaning yillik miqdori 50,4 kilogrammi tashkil etadi. Bir sotix yerdan kamida 400 kilogrammgacha kartoshka olish mumkin. Bu oiladagi 6-8 jonning kartoshkaga bo‘lgan talabini qondiradi, — deydi bulung‘urlik dehqon Muhammad Aliqulov.

Hozir dunyoda organik mahsulotlarga talab o‘sib bormogda. Bozorlarda sertifikatlangan organik mahsulotlar xaridorgir. Organik usulda yetishtirilgan 1 kilogramm uzum 9 dollardan, oddiy usulda yetishtirilgan uzum 1-5 dollargacha eksport qilinmogda.

Ishtixon tumanidagi “Sunny Fruit Agropuls” MCHJ organik sertifikatga ega. MJCH Zarband mahallasidagi 58 ta xonadonda 7,5 gektar yer maydonida yetishtirilayotgan organik uzumni xarid qilib, eksportga yubormogda. Shu asnoda o‘zaro manfaatli hamkorlik vujudga kelyapti.

Tomorqachilik rivoji bugun nafaqat o‘ilaning moddiy manfaatiga, balki yurtimiz iqtisodiyoti yuksalishiga ham daxldor. Iste‘mol tovarlariga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga talab o‘sib borayotganini inobatga olsak, uning ahamiyati yanada ortadi.

Tomorqa qancha samarali foydalansang, shuncha ziyoda bo‘ladigan xazina, beminnat qo‘shimcha daromad manbai. Kimki yerni e‘zozlasa, uni boqsa, u ham egasini boqadi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalst

Bugungi kunda sun'iy intellekt barcha sohalarida dadil qo'llanilyapti va uning ta'siri kundan kunga ortib bormoqda. Dastlab sun'iy intellekt texnologiyalari, asosan, ilmiy-tadqiqot muassasalarida qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Buning ajablanarli joyi yo'q. Bugun biz ishlatayotgan "aqlli" qurilmalarning 80 foizi sun'iy intellektning qaysidir jihatini o'zida mujassam etgan. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotlarda aytilishicha, biz sun'iy intellekt inqilobi markazida turibmiz. 2026-yilga borib, uning global bozori 39,7 foizgacha o'sishi prognoz qilinayotir.

SUN'IY INTELEKT

inson tafakkuri o'rnini bosa oladimi?

Shunday bir paytda sun'iy intellekt zamonaviy ilm-fanni qanday o'zgartirmoqda? U ilm-fandagi ixtirolar, kashfiyotlar o'rini bosa olaydimi? Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi — UNICON.UZ Yangi raqamli texnologiyalarini o'qitish markazi boshlig'i Saydiahrol SAYDIAKBAROV bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.

— Sun'iy intellekt zamonaviy ilm-fanga sezilarli o'zgarishlar kiritib, tadqiqot usullari, ma'lumotlarni tahlil etish va qaror qabul qilish jarayonini o'zgartirmoqda, — deydi Saydiahrol Saydiakbarov. — Inson biologiya, kimyo, fizika, astronomiya kabi zamonaviy fanlar har kuni ishlab chiqaradigan terababiy ma'lumotlarni qayta ishlashga qodir emas. Shu bois, sun'iy intellektga yordam so'rab murojaat qilayotgan olimlar soni ortib borayotir.

Kundalik hayotimizda hamma bilgan ChatGPT yoki Alisa kabi sun'iy intellektga asoslangan virtual assistentlardan foydalanayotganlarni ko'p ko'ramiz. Ular inson uchun eng qadrlil bo'lgan resurs, ya'ni vaqtni tejashga yordam beradi. Masalan, mashhur inson haqida ma'lumot kerakmi, marhamat, uch soniyada sizga tahlil qilingan ma'lumot elektron ko'rinishda taqdim etiladi. Agar siz ushbu ma'lumotni o'zingiz qidirsangiz, bir necha adabiyotni tahlil qilishingizga, hattoki Google'dan qidirsangiz ham o'zingizga ma'qul keladigan havolani topishingizga 3 soniyadan ko'p vaqtningiz ketadi.

Changyutkich kashf qilinganiga bir asrdan oshdi. Bugungi kunga kelib, changyutkichlar sun'iy intellekt yordamida inson yordamizis ishlay oladi. Yana bir misol, qo'limizdagi telefonlarda olingan tasvirlarga sun'iy intellekt yordamida ishlav berish orqali tasvirlardan keraksiz obyektlarni olib tashlash imkoniyatiga ega bo'ldik.

Sun'iy intellekt tadqiqotlarni jadal-lashtirishga qanchalik ta'sir qila oladi, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. U ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash kabi kundalik vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotchilar vaqtni yanada ijodiy va murakkab vazifalar uchun bo'shatadi. Murakkab modellar va simulatsiyalarni yaratish uchun ishlalishi mumkin, bu esa farazlarni tezroq sinab ko'rish va tajriba o'tkazish imkonini beradi.

Ulkam hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda uning o'rmi beqiyos. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlarni yaratadi (masalan, genomika yoki astronomiyada). Sun'iy intellekt bu ma'lumotlarni tezda tahlil qilib, inson uchun noaniq bo'lgan qonuniyatlar va aloqalarni aniqlashga qodir. Mashinaviy o'qitish algoritmlari ma'lumotlarni tasniflash, natijalarni prognozlash va anomalialarni aniqlashda yordam berishi mumkin.

— Fanlararo tadqiqotlarda sun'iy intellekt qanday vazifani bajaradi?

— U ilmiy fanlarni birlashtirishga yordam beradi. Masalan, biotibbiyot tadqiqotlari sohasida sun'iy intellekt yangi davolash usullarini ishlab chiqish uchun genetika, kimyo va klinik tibbiyot ma'lumotlarini birlashtirishi



mumkin. Shuningdek, sun'iy intellektndan ekologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot kabi sohalarida foydalanish murakkab tizimlarni va turli omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganish imkonini beradi.

Aniqlik va ishonchlikni yaxshilaydi. Prognozli tahlillarda qo'l keladi. Klinik tibbiyotdan iqlimshunoslikka bo'lgan turli sohalarida prognozlar aniqligini oshirishi mumkin, bu esa yanada asosli qarorlar qabul qilishga yo'l ochadi.

Inson omilini kamaytiradi. Sun'iy intellektndan foydalanish ma'lumotlarni tahlil etish va natijalarni talqin qilishda inson xatosining ta'sirini kamaytiradi.

— Yangi kashfiyot va innovatsiyalarda qanday o'ranga ega?

— Sun'iy intellekt muayyan xususiyatlarga ega yangi materiallarni topishga yordam beradi, bu elektronika va energetika kabi texnologiyalar uchun.

“Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan har qanday dasturiy ta'minot 100 foiz aniqlikni bashorat qila olmaydi. Misol uchun, tasvirda olingan rasmda qo'l bilan sanab chiqilsa, 100 ta daraxt bo'lishi mumkin. Lekin sun'iy intellekt bir soniyada tasvirdagi daraxtlarni 98 ta deb bashorat qiladi. Bu mashinaviy o'qitish uslubiga bog'liq.”

tadqiqotlarni tezda topishga yordam beradi, bu esa bilim olishni osonlashtiradi va yanada samarali ta'lim olishga ko'maklashadi.

Aqlli qidiruv tizimlari orqali olimning oldingi ishlari asosida tegishli tadqiqotlarni tavsiya qilishi mumkin.

Sun'iy intellekt ilmiy tadqiqotlarga yondashuvlarni tubdan o'zgartirib, ularni yanada samarali, tezkor va aniq qiladi. Biroq ilm-fanda sun'iy intellektndan foydalanishning axloqiy jihatlarini, jumladan, algoritmlar shaffofligi, ma'lumotlarni himoya qilish va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik masalalariga ham e'tibor qaratish muhimdir. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, sun'iy intellekt kelajakdagi ilmiy taraqqiyotda muhim rol o'ynashda davom etadi.

Shveysariyalik astrofizik Kevin Shavinski 2007-yilda Galaxy Zoo nomli startap loyihaning asosiy maqsadi koinotdagi galaktikalarni morfologik tasniflashdan iborat. Loyiha nomidan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, Galaxy Zoo, ya'ni galaktikalar zoopark koinotdagi galaktikalarning ko'rinishi, yoshi va ranglariga qarab ularni saralash imkonini taqdim etdi. Misol uchun, Somon yo'li (Milky way) spiralsimon galaktika sifatida tasniflanadi. Internet foydalanuvchilari o'z taxminlari orqali olimga galaktikalar uchun toifalarni tasniflashda uzoq yillar davomida yordam berdi. Kevin Shavinski internet foydalanuvchilari taxminlari asosida ishlab chiqqan sun'iy intellekt modeli esa bu ishni bir kechada uddalay oldi.

Bugungi kunda eng mashhur generativ modellashtirish tizimlari generativ-raqobatlil tarmoqlar hisoblanadi. Bu tarmoqlar shikastlangan tasvirlarni tiklash, xiralashtirilgan tasvirlarni aniqlik qilish imkoniyatiga ega. Tarmoq ikki qismdan iborat: birinchisi —



yolg'on ma'lumotlar generatori, ikkinchisi — yolg'on ma'lumotlarni haqiqiy ma'lumotlardan farqlashi kerak bo'lgan detektor. Shu tarzda musobaqalashib, tarmoq yetishmayotgan axborotni aniqlashni o'rganadi va asta-sekin rivojlanib boradi.

Glazgo universiteti kimyogari Li Kronin yangi birikmalar olish uchun kimyoviy moddalarini tasodifiy ravishda aralashtirish

imkonini beruvchi sun'iy intellektndan foydalangan. Real vaqt rejimida kimyoviy reaksiyalarni mass-spektrometr, yadro magnit rezonansi va infraqizil spektrometr yordamida kuzatish orqali tizim eng reaksiya qobiliyatli birikmalarni oldindan aniqlashni o'rgandi.

Kroninning fikricha, bunday robot-lashtirilgan tizimlar kimyogar olimlar ishini 90 foiz tezlashtirishi mumkin.

Syurixda olimlar jamoasi ma'lumotlar asosida fizikaning mashhur qonunlarini qayta ishlab chiqqan neyron tarmoq'idan foydalangan.



U Quyosh va Marsning osmonda Yerga nisbatan joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni o'rganib, Quyosh tizimining geliotsentrik modelini qayta kashf etdi. Shuningdek, u bir-biriga urilayotgan sharlarni kuzatish orqali impulsning saqlanish qonunini yana bir bor tasdiqladi.

“The Book of Why” (2018) kitobida informatik olim Jud Perl va fan targ'ibotchisi Dana Makkenzi sabab-oqibat savollariga javob berish uchun ma'lumotlardan foydalanish befoyda ekanini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, modellashtirilmagan ma'lumotlar tahliliga asoslangan har qanday tadqiqot faqat umumlashtirish va o'zgartirishga qodir, ammo ma'lumotlarni hech qanday talqin qilmaydi.

Bunday tadqiqotlarda sun'iy intellektni qo'llashning muvaffaqiyati ilm-fanda odamlar endi kerak emasligini anglatmaydi. Biroq bunday tizimlarga ma'lumotlarni qayta ishlashning oddiy vositasi sifatida qaramaslik kerak, sun'iy intellekt ilmiy fikri to'liq bo'lmas-da, avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

— Sun'iy intellekt sohasidagi global tendensiyalar va ilg'or texnologiyalar nimalardan iborat? Uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri qay darajada?

— Bugungi kunda sun'iy intellekt biznes jarayonlarini avtomatlashtirishda qo'l kelmoqda. Ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko'rsatish kabi turli sohalarida kundalik vazifalarni avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektndan foydalanish ortib bormoqda. Bu samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda faol qo'llaniladi, bu esa kompaniyalarga yanada

asosli qarorlar olish va bozor siyosatini bashorat qilishga yordam beradi.

Buyumlar internetini rivojlantirishda ham uning roli katta. Sun'iy intellekt integratsiyasi tufayli aqlli qurilmalar yanada aqlli bo'lib bormoqda, bu esa resurslarni boshqarishni yaxshilash va xizmat ko'rsatish darajasini oshirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt etikasini ishlab chiqish zarurati mavjud. Sun'iy intellektning asosida fizikaning mashhur qonunlarini qayta ishlab chiqqan neyron tarmoq'idan foydalangan.

Standartlar va qoidalarini ishlab chiqish muhim mavzuga aylanmoqda. Ilmiy tadqiqot ishlarida UNICON.UZ tomonidan ham sun'iy intellekt yo'nalishida turli tadqiqotlar qilinib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan moslashuvchan interpolatsiya usuli yordamida sifatiz shovqinga uchragan tasvirlar sifatini yaxshilash imkoniyati paydo bo'ldi. Ishlab chiqilgan mazkur usul AdobePhotoshop dasturining "bicubic" usulidan samaraliroq ekani olingan natijalarda tasdiqlandi.

Shu bilan birga, uchuvchisiz uchar qurilmalar yordamida qush parvozi balandligidan olingan tasvirlardagi obyektlarni, jumladan, daraxtlarni sun'iy intellekt yordamida sanash uchun mutaxassislarimiz tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot katta-katta hududlarni nazorat qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan har qanday dasturiy ta'minot 100 foiz aniqlikni bashorat qila olmaydi. Misol uchun, tasvirda olingan rasmda qo'l bilan sanab chiqilsa, 100 ta daraxt bo'lishi mumkin. Lekin sun'iy intellekt bir soniyada tasvirdagi daraxtlarni 98 ta deb bashorat qiladi. Bu mashinaviy o'qitish uslubiga bog'liq.

Samaradorlikni oshirish, ish o'rnlari yaratish, yangi xizmat turlarini taqdim etish orqali sun'iy intellekt iqtisodiyotga ta'sir o'tkazadi. Chunki jarayonlarni avtomatlashtirish va sun'iy intellektni joriy qilish mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa yalpi ichki mahsulot o'sishiga olib keladi. Ish o'rnlarni yo'qotish xavotirlariga qaramay,

sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish, ularga xizmat ko'rsatish va boshqarish bilan bog'liq yangi kasblarni ham yaratadi.

Kelajakda sun'iy intellekt raqobatga bevosita ta'sir qilishi mumkinligini, bu esa kompaniyalar, mehnat bozorlari va iqtisodiyot uchun ijobiy o'zgarishlarga olib kelishini hisobga olgan holda, Xalqaro telekommunikatsiya itifoqi asosiy xulosalarini tavsiyanoma sifatida berib o'tgan. Sun'iy intellekt beshta texnologiya guruhini birlashtiradi — mashina ko'zi, tabiiy til, virtual yordamchilar, robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish va kengaytirilgan mashinaviy o'qitish va, umuman olganda, global iqtisodiy faoliyatga hissa qo'shish uchun ulkan salohiyatga ega. Ba'zi kompaniyalar alohida funksiyalarni bajarish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan birini qo'llashga harakat qiladi, boshqalari esa sanab o'tilganlarning barchasini qo'llashi mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jadal sur'atlar bilan amalga oshiriladi va 2030-yilga kelib, global yalpi ichki mahsulotning 1,2 foiz o'sishini ta'minlaydi, bu ilgari joriy etilgan barcha texnologiyalardan ko'proqdir. Shu bilan birga, sun'iy intellektning iqtisodiy samarasi asta-sekin, tezlashgan sur'atda namoyon bo'lishi va faqat vaqt o'tishi bilan sezilarli bo'lishi mumkin. Chunki boshida joriy etish uchun sezilarli xarajatlardan, keyinchalik raqobat va bir-birini to'ldirishning kuchaytiruvchi ta'siri zarur.

Sun'iy intellekt global iqtisodiyot samaradorligini oshirishi mumkin, ammo olingan foyda taqsimoti notekis bo'lishi ehtimoli yuqori. Uni joriy etish rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlanganlaridan ortda qolishini va shu bilan davlatlar o'rtasidagi hozirgi raqamli tafovutni kuchaytiradi. Kompaniyalar darajasida sun'iy intellektndan foydalanish ushbu texnologiyalarni joriy etish bo'yicha yetakchilar va joriy etishni kechiktirgan yoki o'z faoliyatida texnologiyalardan umuman foydalanmaganlar o'rtasidagi samaradorlik farqi oshishiga olib kelishi mumkin. Nihoyat, sun'iy intellekt jahon mehnat bozoridagi talabni odatiy vazifalarni bajarishni talab qiladigan kasblardan ijtimoiy va kognitiv yo'naltirilgan mutaxassisliklarga, shuningdek, avtomatlashtirish qiyin bo'lgan faoliyat bilan bog'liq kasblarga o'tkazishi mumkin.

Boshqacha aytganda, agar sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish samarasiz bo'lsa, milliy iqtisodiyotlar, alohida kompaniyalar va mehnat bozoridagi ishchilar o'rtasidagi tengsizlik kuchayishi mumkin, bu esa ehtimoliy ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunga yo'l qo'yimaslik uchun mamlakatlar hukumatlari biznes bilan birgalikda ishchilarni qo'llab-quvvatlashi va talab yuqori bo'lgan yangi ish o'rnlarni yaratish, yangi xizmat turlarini taqdim etish orqali sun'iy intellekt iqtisodiyotga ta'sir o'tkazadi. Chunki jarayonlarni avtomatlashtirish va sun'iy intellektni joriy qilish mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa yalpi ichki mahsulot o'sishiga olib keladi. Ish o'rnlarni yo'qotish xavotirlariga qaramay,

**“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.**

Ilm-fan

Mamlakatimizda fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasi xalqimiz salomatligi, millat genofondi va mamlakat taraqqiyotining eng muhim paydevorlaridan biri sifatida doimiy e'tiborda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 22-apreldagi qarori ayni yo'nalishda katta burilish yasaydigan huquqiy hujjat bo'ldi. U tibbiy oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy sog'liqni saqlash tizimi uyg'unligini ta'minlash, global me'yorlarga mos kadrlar tayyorlash va raqamlashtirish orqali tibbiyotning zamonaviy qiyofasini yaratishga xizmat qiladi.



Fazliddin ARZIQULOV,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

markazlashgan ilmiy-ta'lim muassasasi — Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Bu yondashuv, bir tomondan, resurslarni samarali taqsimlash va infratuzilmani zamonaviylashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, xalqaro standartlarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga zamin hozirlaydi.

Endi universitet oliy ta'limda akademik, moliyaviy va tashkiliy mustaqillikka ega bo'ladi. Bu esa yangi va ilg'or ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda xalqaro akkreditatsiya va global ilmiy aloqalar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Yangi universitet tarkibida Toshkent tibbiyot akademiyasining alohida o'rmi bor. Akademiya

TA'LIMDAGI O'ZGARISHLAR ZAMONAVIY FIKRLASHGA UNDAYDI

boy tajribasi, yetuk ilmiy maktablari va salohiyatli professor-o'qituvchilari bilan nafaqat yangi universitetning, balki butun mamlakat tibbiyot sohasining tayanchlaridan biriga aylandi. Qaror asosida o'quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, klinikalar va akademik litseylar modernizatsiya qilinadi, yangi simulatsiya markazlari, IT laboratoriyalar va axborot-resurs markazlari barpo etiladi.

Shuningdek, universitet negizida tashkil etilayotgan Tibbiyot ilmiy-innovatsion tadqiqot instituti fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar uchun asosiy ilmiy platformaga aylanishi kutilmoqda. Bu markaz orqali ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi tafovut bartaraf etilib, diagnostika, davolash va profilaktika bo'yicha yangi metodikalar ishlab chiqiladi.

Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika ham mazkur qaror asosida yuqori natijalarga erishish salohiyatiga ega bo'lgan yo'nalishlardan. Kafedra inson organizmidagi fiziologik jarayonlarni matematik modellashtirish, diagnostika tizimlari uchun sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar ishlab chiqish, biotibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish,

tibbiy tasvirlarga ishlav berish hamda genomika va proteomika sohasidagi bioinformatik tahlillar izchil yo'lga qo'yilgan.

Universitetning xalqaro doiralarda faoliyat yuritishi, xorijiy grantlar va ilmiy hamkorlikni

yo'lga qo'yishi orqali ilmiy salohiyatni yanada kengaytirish mumkin. Sun'iy intellekt asosida tibbiy tashxis qo'yish bo'yicha xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish, raqamli sog'liqni saqlash bo'yicha yangi modullarni o'quv jarayoniga



Qaror asosida Toshkent tibbiyot akademiya-si, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent davlat stomatologiya institutining kuchli jihatlari birlashtirilib, yagona

tatbiq qilish, simulatsion markazlarda biotibbiyot fizikasi asosida mashg'ulotlar o'tkazish shular jumlasidan. Shuningdek, bioinformatika tahlillari uchun superkompyuter infratuzilmani yaratish, xalqaro e'tirofga ega ilmiy jurnallarda maqolalar chop ettirish imkoniyati ham oshadi. Bu esa bizni Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlardagi ilg'or universitetlar bilan tenglashtiradi.

Islohotlar tibbiyot kadrlarini tayyorlash sifatida oshadi, amaliy ko'nikmalar kuchayadi, raqamlashtirish asosida sog'liqni saqlash tizimi shaffof va samarador bo'ladi, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi ta'minlanadi. Shuningdek, xalqaro reytinglarda o'rin egallash imkoniyati vujudga keladi. Mamlakat bo'ylab iqtidorli yoshlar uchun zamonaviy ilmiy infratuzilma va o'qish sharoiti yaratiladi.

Ushbu qaror biz, tibbiy ta'lim vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Endi har bir kafedra, har bir o'qituvchi va talabning sog'liqni saqlash tizimi zamonaviylashtirilishida faol ishtiroki talab darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, tibbiyot va texnologiya chorrahasida faoliyat yuritayotgan kafedralar oldida yangi imkoniyatlar ochiladi. Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasida esa bu yo'lda yetakchilardan bo'lishga intiladi.

Zero, kelajak zamonaviy, ilimga asoslangan va raqamli sog'liqni saqlash tizimi bilan chambarchas bog'liq. Bu esa faqat islohotlar emas, balki intellektual o'zgarishni ham talab etadi.

Kitobxon millat

QUDRATLI DAVLAT BARPO ETADI

Ommaviy kitobxonlik o'lkamizga kirib kelganiga uzoq asrlar bo'lgani yo'q. Aniqrog'i, keng ommaga kitob yetkazib beradigan noshirlik ishlari o'tgan asrda yo'lga qo'yilgan. Biroq shu paytgacha ham yurtimizda ilm-ma'rifat qadr topgan, ma'rifat ahli el e'tiborida bo'lgan. Balki millatimizning dunyo ahli ham e'tirof etadigan xislatlaridan biri ilgama muhabbatimizdir. Zero, kitob nashrlari ommaviylashmagan davrlarda o'lkamizda kitobxonlik ommalashganiga guvoh bo'lamiz. Qanday qilib deysizmi?

Donishmand (kitobxon) xalqimizning ma'naviy merosi bo'lgan hikmat sandig'idan bir naql keltiraylik: "O'g'ling bo'lsa, mullaga qo'y, mulla topmasang, davraga qo'y". Farzandi ilm olib, olim bo'lishini istaganlar ustoz muallimlarga murojaat qilgan. Bu tarafi tushunarli. Lekin davra qanday qilib madrasadan keyingi o'rindagi ta'lim maskaniga aylangan? Hikmat — yuz yillar davomida xalq hayotida yashagan voqea-hodisalarning pishib yetilgan mag'zi. Maktab-madrasalarda ilm-fan o'rgatilishi haqiqat. Ammo davra qanday o'rgatadi? Yaqin o'tgan asrimizda ham dala mehnatidan toliqib qaytgan odamlar hordiq chiqarish mahallari yoki biror yig'inlarda doston, ertak, keyinchalik roman va qissalarni ovoz chiqarib chiroyli ohangda o'qib-tinglagan. Qizig'i shuki, jismoniy horigan odamlar dam olish chog'ida o'rta ma'rifat chirog'ini yoqib qo'yg'an. Demak, kitobxonlikning ommaviyligi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan hodisa emas ekan-da!

Kitobxonlik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan. Asrlar shajarasida uzoq yurtlarda yillar bo'yi yurib ilm o'riganib kelganidan



keyin mahallaning o'z odami yoki biror ziyoli musofir mehmonlar moychiroq yorug'ida ma'rifiy subhatlar uyushtirgan. Uzun turlardagi bu gurgun, davra tirik kitob mavqeida bo'lgan. Shunday voqea-hodisalar hayotimizning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bu holga mutanosib keladigan yana bir omil, ya'ni mahallaning oqsoqoli degan iboraga

diqqat qilsak. Mahallada tabiatan fahm-farosati yuksak bo'lgan, ilm o'qigan kishilar oqsoqol nomiga loyiq topilgan. Hatto yaqin-yaqingacha keksalarimizdan ilm-ma'rifat egalari nisbatan "ko'zi ochiq", "kitob ko'rgan" iboralari tez-tez qulog'imizga chalindi. Shuningdek, o'tgan asrlarda baxshilar kuylagan dostonlarni tinglash bugungi shou-konsertlardan mutlaqo boshqacha

ma'no kasb etgan. Ular faqat o'yin-kulgi qilmagan. Baxshi tuni bilan doston kuylagan bo'lsa, jim o'tirib, xuddi audiokitobni tinglagan kabi eshitgan. Bil'aks, audiokitobni tinglashdan ham yuksakroq bo'lgan. Baxshi dostonni yarim teatrlashgan ijro bilan kuylagan. Butun mahalla jam bo'lib doston tinglash barobarida atrofdaqlarning holatini kuzatgan, ko'z orqali qalbdagi tuyg'ular bir-biriga o'tgan, ko'ngilga ma'rifatning jo bo'lish darajasi ming chandon oshgan. Bir dostonni bir yoki ikki kechada butun boshli mahalla ahli eshitgan — ana sizga ommaviy kitobxonlik.

Baxshidan eshitgan dostonidagi sarguzashtlar kayfiyati natijasida odamlar orasida ko'p muhokamalar kechgan, doston sarguzashtlari o'y-xayollarida uzoq davrlar mobaynida o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Butun mahalla ahli "kitob"ni bir vaqtning o'zida o'qib chiqishi bugungi kun odamlarining tasavvuriga sig'masligi mumkin. Ammo hayotning tashvishu quvonchlari o'shanda jozibali bo'lgan.

Qisqacha bayon qilganlarimizdan natija shuki, kitob, kitoblarning jonli ijrosi yoxud ikki oyoqli tirik kitoblar — olimlar haqida ozgina xabar aytdik. O'sha davrlarda kitobxonlik holati boshqa bir shaklda bo'lganini ham tasavvur qila boshladik. Ammo har ikkisiida mohiyat bitta. Negaki, bugun ham kitobxonlikdan maqsad odamlarning ma'rifati bo'lishi bo'lsa, oldingi davrlarda ham maqsad mustarak ekaniga

guvohmiz. Ana shu mantiq va mohiyatdan kelib chiqib, o'ta nozik bir kuzatishlarimni o'rta tashlamoqchiman.

To'g'ri, ilm olish hech bir zamonda oson kechmaydi. Shuni ham e'tirof etib ketaylik, o'qish-yozishni bilganlar hali ilm ahli qatoriga qo'shildi, degani emas. Lekin ming bir mashaqqat chekib, uzoq o'lkalarga borib ilm olgan olimlar, ma'rifat ahli, hech shubhasiz, odamlar e'tiborida bo'lgan. Kishilar bilimdonlarni mehmon qilganlarida uyinging to'riga o'tkazgan. O'sha ilm ahlining ro'zg'orida biror yumushi bo'lsa, ko'pchilik baravarlashib ko'mak bergan. Shunday qilib, ma'rifat ahlining mashaqqat bilan egallagan bilim va tajribalaridan bahramand bo'lib kelingan. O'z navbatida, ilm ahli ham turmush tashvishlariga o'ralashib qolmay, odamlarning haqini ado etish yo'lida erta-yu kech bosh qotirgan. Olim-ulo, donishmandlar siymosida, siyratida odamlar o'z orzusini ko'rgan. Ularga havas qilib, farzandlari ulardek olim bo'lishi orzulari bilan yashab kelgan.

Bugungi taraqqiy etgan dunyodagi kitobxonlikning holati o'zgardi. Natijada ilm-ma'rifatning aslidan tobora uzoqlashayotgan avlod o'z bilganidan qolmaydigan darajaga yetdi. Ijodkorlar, olimlar, oqsoqollar u yodda tursin, o'ta-ona hamma yoshi ulug'larimiz gaplariga quloq osadiganlar, jilla qursa, hayot tajribasidan ibrat olayotganlar ozchilikni tashkil qiladi. Buning ta'sirida yoshlar o'rta-sidagi o'ziga xos hurmat-ehtirom hislari boshqacharoq kasb etib, go'yo g'arblashgandek yo g'arib tus olmoqda.

Hech shubhasiz, olim-ulo ulamolarga, ma'rifat ahli, ustozlarga, keksa nuroniylarga e'tibor kundan kun ortib boryapti. Kuzatishlarimdagi bir go'zal holni aytib ketay. Kitobxonlik ommaviyligidan ajoyib misollarni eslab o'tdik. Vaholanki, ilm ommaviy emas, shu ikki holatni bir-biriga qorishiq tushunganimiz tufayli kitobxonlik mavzusida sal parishonlik ko'zga tashlanmoqda.

Binobarin, ilm ommaviy emas, der ekanimiz, ilm ahli hisoblangan olim, ijodkor, ixtirochi, tadqiqotchi, kashfiyot sohiblari ham omma qatori sanab o'tilmasligi kerak.

Hozirgi kunda mana shu sanab o'tilgan kishilar har birining hayot tarziga bugungi kun yoshlari havas bilan qarashayotgani yo'q. Masalaning yechimi aynan shu tugunda turibdi. Ilmda iqtidorli bo'lgan kishilarga avval havas bilan qaraladi va keyin ibrat olinadi. Unga o'xshashni orzu-havas qilish bilan o'mak olinadi. Kitobxonlik haqida qayg'urar ekanimiz,

shu ilmiy-badiiy asarlarni ijod qilayotgan kimsalarning turmush tarzi o'rnak bo'lmas ekan, undan qanday qilib ulgi olinadi, unday ma'rifatchilarga qaysi bir shijoatli yosh havas qiladiyu, kitobini maroq bilan o'qiydi?

O'z ota-onalarimiz, keksalarni ehtirom qilishning afzalliklarini kitobxonlar yorqin tushunib yetishi, o'quvchi esa o'qituvchi va ustozlarni hurmat qilishi, sog'lig'imiz uchun jonkuyarlik qilayotgan shifokorlarning kecha-kunduz uxlamasdan qilayotgan xizmatlari, yangi oilalarning mustahkam bo'lishi kabi ko'plab masalalar kitobxonlik orqali o'z yechimini oson topadi. Chunki o'z-o'zimizni hurmat qila boshlasak, o'zgalarning hurmatini ham joyiga qo'yishning mohiyatini his etamiz.

Aytish mumkinki, kitobxonlik uchun yaratilgan keng imkoniyatlarning samarasini oshirish maqsadida Prezidentimiz 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqot chog'i yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda badiiy adabiyotning roli juda katta ekaniga alohida to'xtalib: "Bundan qirq yil oldin ustoz shoir Erkin Vohidov tashkil etgan "Yoshlik" jurnali faoliyatini kuchaytirib, uni yana yoshlarimiz sevib o'qiydigan jurnalga aylantirish muhim", deya ta'kidladi. Buning ham o'ziga yarasha asoslari bo'lib, bolajonlarimiz maktab partasidan jurnallar vositasida ma'rifat ahli bilan qisqa-qisqa oshno bo'lib, ko'nikma hosil qilib borsa, o'sib-ulg'aygan sari bu ma'naviy do'sti bilan kengroq tanisha boradi. Kitobxonlik ham sport kabi avvaliga mashq qilinadi, mashq esa xuddi shu jurnal va gazetalar, keyin navbati bilan sportchi katta maydonga tushgani kabi romanlar mutolaa-siga o'tiladi. Donishmandlarimiz aytganidek, kitobdek to'g'ri yo'l ko'rsatadigan hamda to'g'ri so'z hech bir do'st topib bo'lmaydi. U hech qachon atrofdaqi voqea-hodisalardan varaqlarida bitilgan so'zlarini o'zgartirmagan.

Prezidentimizning butun millatni kitobxon qilmasdan to'xtamayman, degan qat'iyati ildizi, hech shubhasiz, ming yillik qadriyatlarimizga borib taqaladi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

So'zim oxirida shuncha izlanib o'rganganlarim mohiyatini aytak. Kitobxon millat qudratli davlat barpo etishi tabiiy. Chunki bu dunyo hayoti manfaatlar ustiga qurilgan. Hayot qonuniyatiga hamohanglik, ma'rifat yo'li eng to'g'ri yo'ldir.

Xolmuhammad KARIMIY,
yozuvchi

9-may – Xotira va qadrlash kuni

OSOYISHTA KUNLARNING QADRIGA YETISH, SHUKRONALIK BILAN YASHASH HAM FAZILAT

Hamon esimda. Bolaligimizda Ikkinchi jahon urushi haqidagi kinofilmlarni ko'rsak, enamning ko'zlariga yosh quyilardi. Buni kino ta'siridan deb o'ylardim, bir oz ulg'aygach, bu ko'z yoshlar sog'inch, ayrilg'i, tiriklik yo'lidagi azob-uqubatlar "mahsuli" ekanini angladim.



— Harbiy komissariyatga chaqirilganimda 19 yoshda edim, — deya xotirlaydi urush qahramoni. — Qisqa harbiy tayyorgarlikdan so'ng 3-Ukraina fronti tank diviziyasi safida xizmat qildim. U kunlarni eslash og'ir, bolam. Akam Rahmonjon bilan harbiy qismda uchrashganman. Keyin u boshqa frontda og'ir yaralanib uyga qaytgan. Birinchi jangda men bilan birga frontga kelgan hamqishlog'im ko'z o'ngimda halok bo'ldi. Bundan ta'sirlanib, bir necha kun o'zimga kelolmaganman. Keyingi jangda qo'lmdan, oyog'imdan yaralanib, tuproq ichida qolib

ketibman. Ko'zimni ochib qarasam, harbiy gospitalda yotibman. Qisqa davolanishdan so'ng yana oldingi safga qaytganman.

Beshafqat o'qlar yomg'iri ostida Dnepr daryosini kechib o'tish, Moldova, Ukraina, Polsha, Vengriya, Chexoslovakiya shahar va qishloqlarini ozod qilishda ishtirok etib, mardlik, matonat ko'rsatdi, bir necha bor jangovar orden va medallarga sazovor bo'ldi. O'laba haqidagi xabarni Chexoslovakiya o'rmonlarida eshitdi. Ammo urush olovleri Odiljon uchun yakun topmadi. Jangchilar esheloni rus-yapon fronti sari yo'lga chiqdi. Garchi bu urushda qatnashmagan bo'lsa-da, mamlakat sarhadlarini himoyalashda ko'pga ibrat bo'ldi. Uni armiya saflarida qolishga chorlashdi. Ammo u yaqinlari, o'z jigarbandlari yoniga qaytishga qaror qildi. Uyga qayt-gach, o'z tug'ishganlarini izlab Farg'onaga keldi, shu yerda qo'nim topdi, uy-joy, oila qurdi.

Bolaligidan mehnatda toblangan urush qahramoni Markaziy Farg'ona yerlarini o'zlashtirishda qatnashdi. Beshsari adirlariga suv olib bordi, qum barxanlari o'mida yangi ekin maydonlari ochdi, bog' u rog'lar yaratdi, qishloqlar qurilishiga bosh bo'ldi. Toshloq tumanidagi Xonariq qishlog'i o'tmishi va bugungi hayot tarzida Odiljon Zokirovning mehnatlari alohida e'tirof etiladi.

— Bugungi kunlarning qadriga yetish, tinchlikni asrab-avaylash, to'g'ri, halol, shukronalik bilan yashash ham fazilat, — deydi qutlug' yoshli otaxon. — Hamma shart-



sharoit, istagan narsamiz bor, biror manzilga boraman desangiz, piyoda yurmaysiz. Shahar va qishloqlarimiz obodligini ko'rib yayrab ketaman, umrimga umr qo'shilganidek bo'ladi, dasturxonimiz to'kin-sochin, bunday kunlar hech qachon bo'lmagan.

Odiljon aka nafaqaga chiqqach ham fidovilar safida qoldi. Mahalla oqsoqoli sifatida yo'llarni asfaltlash, suv olib kelish, obodonlashtirish ishlari, to'y-ma'rakalarga bosh bo'ldi.

Urushning tirik afsonasi yashayotgan hovli mevali bog', bahor taftiga monand baravj gulu chaman. Sararjon-sarishta hovlida bahri dilingiz ochiladi. Bularning barchasi oddiy va kamtarin oilada an'anaga aylanib ketgan halol mehnat, hamjihatlik, shirinsuxanlik mahsuli ekanini dildan his qilasiz.

— Bu nav-nihollar biz uchun qadrlı, — deydi Ma'rufjon Zokirov. — Ularning har birida otam va onamning siymosi, qadoq

qo'llari izlarini ko'raman. Otam bu bog'larga ishlov berishga hanuz bosh bo'lib, maslahat beradi, yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu hayotiy nasihatlariga amal qilib, kam bo'lganimiz yo'q.

Asr bilan yuzlashgan Odiljon otaneng birda yaxshi, birda mahzun o'tgan mashaqqatli hayot yo'li, munavvar kunlari xususida bilishni istovchi, undan ibrat oluvchilar ko'p keladi bu xonadonga.

Odiljon aka suronli yillardagi og'ir hayot, ocharchilik qurbonlari bilan bog'liq voqea va hodisalarni ko'p bor yodga oladi. Keksalik sabab erkin harakatlanishga bir oz qiynalsa-da, xotirasi yaxshi, so'zga chechan. Farg'onaliklarga xos ochiqlik, samimiyat bilan bir piyola choyga taklif etishni kanda qilmaydi. Chunki bu uyning chirog'i hamisha yoniq...

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetaları tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 546.
36390 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:10

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05